

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI**

F.MURADOVA, G.RAXIMOVA, J.ESHKUVATOV

**O‘QITUVCHILARNING USLUBIY
ISHLANMALAR YARATISH
KO‘NIKMALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

TOSHKENT - 2025

UDK: 37.013

KBK: 74.00

M 96

Muradova F., Raximova G., Eshkuvatov J. O'qituvchilarning uslubiy ishlanmalar yaratish ko'nikmalarini takomillashtirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2025. – 104 bet.

Taqrizchilar:

L.B.Mirzohidova

A.Avloniy nomidagi PMMI Boshlang'ich ta'lim va filologiya fanlari metodikasi kafedrasi v.b. dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

G.Sh.Fayzullayeva

Samarqand viloyati PMM Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.B.Raximkulova

Samarqand viloyati PMM maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 17-martdagi "O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 89-son buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini taminlash maqsadida yaratilgan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quv jarayoniga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yishdan iborat.

Mazkur o'quv qo'llanma maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi o'qituvchilarning ilg'or ish tajribasi hamda faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini takomillashtirish hamda kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirib borish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining barcha fan o'qituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslarida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

ISBN: 978-9910-09-391-3

O'quv qo'llanma A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti kengashining 2025-yil 16-iyuldagi 7-sonli bayonnomasi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan

© Muradova F., Raximova G., Eshkuvatov J.

© "OLAM PRINT" nashriyoti, 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. KASBIY VA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	6
1.1. Kasbiy va metodik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.....	7
1.2. Metodik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.....	14
II BOB. OMMALASHTIRISHGA TAVSIYA ETILGAN ILG‘OR ISH TAJRIBALARINI O‘RGANISH MASALALARI.....	33
2.1. Ommalashtirish haqida umumiy ma’lumot.....	34
2.2. Respublika miqyosida ommalashtirilgan ishlardan namunalar bilan tanishtirish.....	36
III BOB. METODIK ISHLANMALAR TAYYORLASHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR	47
3.1. Metodik qo‘llanma va Metodik tavsiya haqida umumiy ma’lumot.....	48
3.2. Metodik qo‘llanma va Metodik tavsiyaga qo‘yiladigan umumiy talablar.....	53
IV BOB. ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VOSITASIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANI O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	61
4.1. O‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda foydalaniladigan asosiy yondashuvlar	62
4.2. Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlardan amaliy ishlanmalar.....	66
OMMALASHTIRISH.UZ ELEKTRON PLATFORMASIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA.....	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	87
ILOVALAR.....	89

KIRISH

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishi, o'z fanining muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi, va nihoyat, o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olibborishi davomida olimlarning tajribalarini to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi. Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. O'quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsa-da, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo'ladi. O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ilg'or pedagogik tajribalarga tayanishi yaxshi natijalarga olib keladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy yondashuvlar va yangi axborotlardan o'quv jarayonida keng foydalanishni talab etmoqda. Bu borada prezidentimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga alohida e'tibor qaratar ekan, o'z nutqida **“Bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhim”** – deya ta'kidlaydi.

Bugungi kunda o'qitishga zamonaviy metodologik yondashuvlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, fanlararo integratsiya va kompetensiyaviy yondashuv talab etilmoqda. O'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rivojlantirish, ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, real hayotdagi muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish va yechishga o'rgatish asosiy vazifalardan biridir.


Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 17-martdagi “O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy

metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 89-son buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini taminlash maqsadida yaratilgan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quv jarayoniga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi.

Ushbu o'quv qo'llanma maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi barcha pedagog xodimlar, tadqiqotchilar va ta'lim sohasi mutaxassisleri uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qitishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish, loyihaviy va tadqiqot faoliyatlarini rivojlantirish hamda ilg'or ish tajribalaridan oqilona foydalangan holda o'qituvchilarga o'zining yo'nalishi bo'yicha metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya yaratish, uni ommalashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. **Qo'llanmaning maqsadi** – zamonaviy ta'lim talablariga mos keluvchi, o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarni targ'ib qilish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Ishonch bilan aytish mumkinki, mazkur qo'llanma ta'lim tizimida o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashishga, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirgan holda o'qitilishining sifatini yanada oshirishga, o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga va ularning kelgusidagi kasbiy yo'nalish tanlovida mustahkam ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

I BOB. KASBIY VA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI



1.1. Kasbiy va metodik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, XXI asr ko‘nikmalari, shaxsiy kompetentlik, hamkorlik, bilim, ko‘nikma, malaka.

Reja:

1. Kasbiy kompetentlik haqida tushuncha.
2. Kasbiy kompetentlik turlari.

Bugungi kunda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borish talab etilmoqda. **“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”)** – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi. “Kompetentlik” pedagogik kategoriya sifatida ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishini ko‘zda tutadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, Ta’limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va xatti-harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, “kompetensiya” mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: murakkab jarayonlarda; noaniq vazifalarni bajarishda;

bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda; kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo'lishda. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o'zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash. Ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi. Ular o'zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'limjarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

c) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillaridan samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni

amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish; XXI asr ko‘nikmasi, 4 K modelidan dars jarayonida samarali foydalanish;

XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish – bu o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar, texnologiyalar va ijtimoiy talablar asosida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, kritikal fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan jarayondir. XXI asr ko‘nikmalari global iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sharoitida, shuningdek, yangi pedagogik yondashuvlar asosida shakllanadi.

XXI asr ko‘nikmalari sifatida quyidagi **asosiy ko‘nikmalar** belgilangan: aloqa va axborot ko‘nikmalari, fuqarolik savodxonligi, global ong, madaniyatlararo ko‘nikmalar, tanqidiy fikrlash, kreativlik ko‘nikmalari, muloqot ko‘nikmasi, hamkorlik ko‘nikmasi

1. Kritik fikrlash va muammolarni hal qilish: XXI asrda o‘quvchilarga muammolarni aniqlash va ular uchun yechimlar ishlab chiqishda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

2. Kreativlik va innovatsion fikrlash: XXI asrda kreativlik va innovatsiyalar jadal rivojlanmoqda, bu esa ilm-fan va texnologiyaning yangi chekkalariga chiqishni talab qiladi. Bunda o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish orqali kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishadi.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (AKT):

XXI asrda AKT ko‘nikmalari juda muhim hisoblanadi. AKT vositalaridan foydalanish o‘quvchilarga yanada samarali o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Kompyuter simulyatsiyalari, interaktiv laboratoriyalar, virtual teleskoplar va boshqa ilmiy dasturlar yordamida o‘quvchilar amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazadilar. Misol uchun astronomiya bo‘yicha virtual teleskoplar yordamida o‘quvchilar yulduzlarni, sayyoralarni va boshqa astronomik obyektlarni kuzatishlari mumkin.

1. Hamkorlik va jamoaviy ishlash:

XXI asrda jamoaviy ishlash ko‘nikmalari ham muhim hisoblanadi. Jamoaviy ishlash, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va loyihalarni amalga

oshirishda ham zarurdir. Masalan: o'quvchilarni tajriba o'tkazishda guruhlar bo'lib ishlashga, ma'lumotlarni tadqiqotlar orqali taqdim etishga o'rgatish mumkin.

2. **Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish:**

XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda muvozanatli bilim olish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'rganishlari kerak, balki ularni amaliyotda qo'llashni ham o'rganishlari lozim.

3. **Global va ijtimoiy mas'uliyat:**

XXI asr ko'nikmalarining yana bir jihati - bu global muammolarni hal qilishda mas'uliyatli bo'lishdir. O'quvchilarga dunyo miqyosidagi muammolarni tushunishga va ularga yechimlar topishga yordam beradi, masalan, iqlim o'zgarishlarini, tabiiy ofatlarni yoki kosmik tahdidlarni o'rganishda.

XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish mumkin.

1. **Kontekstli o'qitish** – bilimlarni real hayotga tatbiq etish va muammolarni hal qilishda qo'llash.

2. **Interfaol o'qitish** – guruhlar, munozaralar, simulyatsiyalar va laboratoriya ishlarini tashkil etish.

3. **Muammolarni hal qilish yondashuvi** – o'quvchilarga real muammolarni o'rganish va hal qilishda yordam berish.

4. **Rolli o'yin metodlari** – o'quvchilarga ilmiy yondashuvlar va ko'nikmalarni o'rgatishda imitatsiya va innovatsion metodlardan foydalanish.

XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchilarga ilmiy metodlar, texnologiyalar va kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu fanlar orqali o'quvchilar zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, muammolarni hal qilish va global muammolarga javob berish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallaydilar.

f) kommunikativ kompetentlik – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

g) texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

i) ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

3.Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. A.K.Markova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi bayon qilingan:

✚Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);

✚Ijtimoiy kompetentlik (qo‘shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish);


✚Shaxsiy kompetentlik (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoyon etish);

✚Individual kompetentlik (o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish).

Ta’lim amaliyotida kompetentlik yondoshuvini amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlari chuqur va har tomonlama ilmiy o‘rganishni talab etadi. Shu bilan birga, ta’kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki, kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan Ta’limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari kiritilgan bo‘lib, u fanlarda yetarli darajada chuqur anglab yetilgan va o‘zining mustahkam o‘rniga ega. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida pedagogika fanining tushunchalari tarkibiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha

pedagogik, xususan didaktik tushunchalar tizimiga to‘laqonli tarzda tegishli. Shu bilan birga, ta’limda kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuvlarning dolzarbligi tufayli “kompetentlik”, “kompetensiya”, “tayanch kompetensiyalar” atamaları ta’limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko‘proq ishlatilmoqda va borgan sari keng tarqalib bormoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiyalar, ulardan qaysi birlari tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullari qanday ekanligi tushunib yetish jarayoni jadal bormoqda, ushbu tushunchalarni aniqlashtirish bo‘yicha qizg‘in munozaralar davom etmoqda. Shu sababli bugungi kunda ushbu tushunchalarning juda ko‘plab ta’riflari va talqinlari mavjud. Kompetentlik – bu faqatgina o‘zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi hamda salmoqli hajmi bo‘libgina qolmay, balki, ularni kerak vaqtda ishga sola bilish va o‘zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir. Bu ma’noda kompetentlik insonning, shaxsning, kasb egasining tavsifi hisoblanadi, shu bilan birga, u shaxsning shaxsiy imkoniyatlarining yig‘indisi, uning o‘z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatida samarali ravishda qo‘llay olish qobiliyati hisoblanadi.

Kasbiy va uslubiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi bu shaxsning o‘z kasbiy faoliyatida samaradorlikni oshirish va zamonaviy uslubiy yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu metodika o‘qituvchi, mutaxassis yoki rahbarning malakasini oshirish va innovatsion yondashuvlarni faoliyatga integratsiya qilishni ta’minlaydi.



1-rasm. A.R.Markova tasnifi bo‘yicha pedagogik kompetentligi turlari.



2-rasm. Kasbiy kompetentlik asoslari modeli.

Kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari:

- **Bilimlar:** Nazariy bilimlar, texnologiyalar, qonun-qoidalar va boshqalar.
- **Ko‘nikmalar:** Amaliy faoliyatda bilimni qo‘llash qobiliyati, masalan, muammolarni hal qilish, yangi vaziyatlarga moslashish.
- **Malakalar:** Tajriba orttirish orqali bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish.
- **Suhbatlashish qobiliyati:** Jamoada ishlash, fikr almashish, muloqot qilish.
- **Tashabbuskorlik:** Yangilikka intilish, faoliyatni yaxshilashga harakat qilish.
- **Mas’uliyat:** Ishga jiddiy yondashish, belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish.
- **O‘z-o‘zini boshqarish:** Ish vaqtini samarali tashkil etish, o‘z faoliyatini nazorat qilish.
- **Adaptatsiya:** Yangi vaziyatlarga tez moslashish, o‘zgaruvchan talablarga javob bera olish (*Qarang: 2-rasm. Kasbiy kompetentlikning asosiy modeli*).

Kasbiy kompetentlik insonning kasbiy rivojlanishi va o‘z faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi uchun zaruriy omildir.

1.2. Metodik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Reja:

1. Metodik kompetentlik haqida tushuncha.
2. Metodik kompetentlikning turlari, bosqichlari.

Kalit so‘zlar: metodik kompetentlik, xorijiy tajribalar, “Lesson Study” metodikasi, dars, tahlil, muhokama, rejalashtirish, hamkorlikda ishlash, 5E modeli.

Metodik kompetentlik – ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash, faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, baholash, ilg‘or xalqaro pedagogik tajribalarni o‘rganish, o‘quv jarayonini loyihalash, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘nikmalaridir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik kompetentlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga alohida e‘tibor qaratildi. O‘qituvchi faoliyatida o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘z ijodkorligi, o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchiligi kabi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tarkib toptirishdir. Ta’lim jarayoniga yondashuv asosan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini shakllantirishga qaratiladi. Ta’lim metodlari avvalo pedagog ongida qaysidir bir yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish ham murakkab pedagogik tizimdir. Davlat ta’lim standartlari zamonaviy pedagogga qo‘yiladigan malaka talablari kompleksini belgilab beradi. Quyidagilar bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini ta’minlab beruvchi asosiy talablar hisoblanadi:

-o‘qituvchining ta’lim oluvchilarni o‘qitish va tarbiyalash mahorati;

-o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar;

-ta'lim oluvchilarning bilimini nazorat qilish va xolisona baholash mahorati. O'qitish mahorati quyidagi talablar bilan belgilanadi:

-kasbiy layoqat va eruditsiya;

-psixologik-pedagogik tayyorgarlik;

-ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga va yangi bilimlar olishga o'rgatish mahorati;

-o'quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;

-yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallaganlik, internetning global tarmog'i bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar;

-pedagog kadrlar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilish;

-ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;

-pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini bilish;

-predmetlararo aloqalardan foydalanish mahorati;

-ritorika va notiqlik san'ati asoslarini bilish.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va metodik kompetentligi davlat ta'lim standartlari va ijtimoiy buyurtmachi talablari asosida rivojlantiriladi va uning natijasi baholanadi. Bo'lajak o'qituvchi nazariy, amaliy va mustaqil ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar faoliyat tajribasini o'zlashtirishi natijasida metodik kompetentligini rivojlantiradi. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning faoliyatli modelida ikkita ko'rsatkich bo'yicha, ya'ni metodologik hamda pedagogik, umumkasbiy fanlar va mustaqil ta'lim orqali tavsiflanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligi pedagogik jarayonda vazifalar (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi), mazmun (me'yoriy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va qo'shimcha materiallar), shakl (jamoaviy, guruhli hamda yakka), metod (an'anaviy, noan'anaviy va inovatsion texnologiyalar) va vosita (real, tabiiy va bosma)lar orqali rivojlanib boradi. Metodik kompetentlik o'z o'rnida ta'lim berish, tarbiyalay olish,

ta'limning zamonaviy usullarini qo'llash, inson omilini ta'minlash fazilati, ta'lim oluvchilar bilimini holisona baholash va nazorat qila olish kompetentliklari orqali ifodalanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion yondashuv asosida metodik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini joriy etish natijasida shakllantirilgan kompetensiyalarni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish va kelgusi faoliyatni belgilash jarayonida baholash mezonlari va natijalari monitoringi sifatida ifodalandi. Faoliyatli modelni joriy etish natijasida metodik kompetentligi rivojlangan, ta'lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil eta oladigan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish nazarda tutiladi.

Nazariy bilimlarni mustahkamlash: O'z sohasi bo'yicha zamonaviy ilmiy-nazariy bilimlarni egallash. Me'yoriy hujjatlar, qonunchilik va ilg'or pedagogik yondashuvlarni o'rganish. Soha bo'yicha yangiliklar va innovatsion yondashuvlardan xabardor bo'lish.

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish: Amaliy mashg'ulotlar orqali yangi metod va texnologiyalarni qo'llashni o'rganish. Loyihalar va treninglar orqali tajriba almashish. O'quvchilar bilan ishlashda yangi usullarni sinab ko'rish va natijalarini tahlil qilish. Bu jarayonda Yaponiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur va Xitoy kabi rivojlangan mamlakatlar tomonidan keng qo'llaniladigan "**Lesson Study**" pedagogik yondashuvidan foydalanish mumkin.



“Lesson Study” metodikasi.

Lesson Study Yaponiyada paydo bo'lgan o'qitish amaliyoti bo'lib, o'qitish va ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikdagi jarayondir. Lesson Study jarayonida o'qituvchilar jamoasi darsni samaraliroq qilish uchun loyihalashtiradi, o'tkazadi, tahlil qiladi va takomillashtiradi.

Lesson Study - bu o'qituvchilar o'qitish va o'rganishni yaxshilash uchun darslarni birgalikda rejalashtiradigan, kuzatadigan va tahlil qiladigan kasbiy rivojlanish yondashuvidir.

Lesson Studying asosiy xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaymiz:

1. Hamkorlikda dars ishlanmasi: Bir fan bo'yicha yoki bir xil ta'lim darajasida ishlovchi o'qituvchilar guruhi hamkorlikda dars rejasini tuzadilar. Bu mavzuni tanlash, o'quv maqsadlarini belgilash, topshiriqlarni rejalashtirish va o'qitish usullarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

2. Darsni kuzatish: O'qituvchilardan biri o'quvchilar bilan dars olib boradi, qolgan o'qituvchilar esa kuzatib boradi. Dars davomida kuzatuvchilar o'quvchilarning topshiriqlarga qanday munosabatda bo'lishlarini, qaysi o'qitish usullari eng samarali ekanligini va qayerda qiyinchiliklar paydo bo'lishini qayd etadilar.

3. Tahlil va munozara: Darsdan so'ng barcha guruh o'qituvchilari yig'ilib, nima ishlagan va nima ishlamaganligini muhokama qilishadi. O'qituvchilar o'quvchilarning xulq-atvorini, o'qitish usullarini, ta'lim jarayoni natijalarini tahlil qiladilar. Darsning kuchli tomonlari ham, yaxshilash mumkin bo'lgan sohalar ham muhokama qilinadi.

4. Darsni takrorlash va takomillashtirish: Muhokama asosida o'qituvchilar darsning tuzilishi va mazmuniga kamchiliklarni bartaraf etish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'zgartirishlar kiritadilar. Ushbu yaxshilanishlar kichik (masalan, topshiriqlar matnini o'zgartirish) yoki murakkabroq (masalan, materialni taqdim etish usullarini o'zgartirish) bo'lishi mumkin.

5. Sikllilik: Bu jarayon bir necha marta takrorlanadi, har bir siklda darslar samaraliroq bo'ladi va o'qituvchilar bir-birlariga yangi usul va yondashuvlarni o'rgatishadi.

Lesson Study yondashuvining o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishdagi afzallik jihatlarini quyidagicha izohlaymiz:

1. O‘qituvchilarning malakasini oshirish: Lesson Study o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashishga yordam beradi, ularning pedagogik mahoratini oshirishga, o‘qitishning yangi uslub va yondashuvlarini topishga yordam beradi.

2. Birgalikda ishlash: Bu o‘qituvchilarga jamoa bo‘lib ishlash imkonini beradi, bu esa jamoaviy o‘rganish va qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Birgalikda darsni loyihalash va tahlil qilish o‘qituvchilarga turli yondashuvlar o‘quv jarayoniga qanday ta’sir qilishini tushunishga yordam beradi.

3. Darslar sifatini oshirish: Darslarni tahlil qilish va takomillashtirishni amalga oshirish jarayoni darslarni yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘qituvchilar ta’lim sifatini oshirishga yordam beradigan fikr-mulohazalar oladi.

4. O‘quvchilarning diqqat markazida bo‘lish: Lesson Study o‘quvchilarning materialni qanday qabul qilishlari va o‘rganishlarini tushunish uchun mo‘ljallangan. O‘quvchilarning reaksiyalarini kuzatish o‘qituvchilarga o‘z usullarini to‘g‘rilash va darslarni samaraliroq qilishda yordam beradi.

5. Ochiqlik va hamkorlik madaniyati: O‘qituvchilar yakka o‘zi ishlayotgan an’anaviy yondashuvdan farqli o‘laroq, Lesson Study hamkorlik va ochiqlik muhitini yaratadi. O‘qituvchilar o‘z xato va kamchiliklarini baham ko‘rishdan va ularni tuzatish uchun birgalikda ishlashdan qo‘rqmaydilar.

Darsni o‘rganish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Guruhni shakllantirish: Dars va o‘qitish sifatini oshirishga qiziquvchi o‘qituvchilar guruhi shakllantiriladi. Ideal holda, bu guruh 3-5 nafar o‘qituvchidan iborat bo‘lishi kerak.

2. Mavzuni tanlash: O‘qituvchilar barcha ishtirokchilarni qiziqtiradigan va o‘quv dasturiga mos keladigan dars mavzusini tanlaydilar.

3. Darsni hamkorlikda rejalashtirish: O‘qituvchilar birgalikda dars rejasini ishlab chiqishda o‘zlari foydalanadigan maqsadlar, usullar, materiallar va vazifalarni muhokama qiladilar.


4. Darsni o‘tkazish: O‘qituvchilardan biri darsni boshqaradi, qolganlari esa kuzatadi. Kuzatuvchilar talabalarning material bilan qanday munosabatda bo‘lishlarini va o‘qituvchining sinfni qanday boshqarishini qayd etadilar.

5. Munozara va tahlil: Darsdan so‘ng o‘qituvchilar yig‘ilib, nima yaxshi o‘tdi va nimani o‘zgartirish kerakligini muhokama qiladilar. Ular o‘z kuzatishlari bilan o‘rtoqlashadilar, o‘quvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qiladilar va takomillashtirish yo‘llarini topadilar.


6. Darsni o‘zgartirish: Tahlil asosida o‘qituvchilar dars rejasiga o‘zgartirishlar kiritadilar. Bu topshiriqlarni takomillashtirish, dars tuzilishini o‘zgartirish yoki o‘qitishning yangi usullarini joriy etish bo‘lishi mumkin.

7. Siklni takrorlash: Bu jarayon bir necha marta takrorlanadi va har bir o‘tkazilgan yangi darsning sifati yaxshilanadi, bu o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishiga va umuman ta’lim jarayonini takomillashtirishga yordam beradi.

Lesson Study ta’lim sifatini oshirishning kuchli vositasidir. U o‘qituvchilarning malakasini oshirishga yordam beradi, darslar samaradorligini oshiradi va o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlik va tajriba almashish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, o‘qitish amaliyotini takomillashtirishda qo‘l keladi, chunki u o‘qituvchilarga nafaqat o‘z darslarini loyihalashtirish va takomillashtirish, balki turli metod va usullarning o‘quvchilarga qanday ta’sir qilishini chuqurroq tushunish imkonini beradi.



LESSON STUDYING DIDAKTIK MODELI



Uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish: Dars ishlanmalari va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish. Innovatsion metodlarni amalda qo'llash: loyihaviy ta'lim, gamifikatsiya, interfaol texnologiyalar. Ta'lim jarayonida tahliliy va reflektiv usullardan foydalanish.

Uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish borasida dars ishlanmalari va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish, loyihaviy ta'lim, gamifikatsiya, interfaol texnologiyalar, ta'lim jarayonida tahliliy va reflektiv usullardan foydalanish jarayonida 3E, 5E, 7E

modellaridan foydalanish dars jarayonini tashkil etishda samara beradi.

5E modeli.

5E modeli – bu o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan o‘qitish modeli bo‘lib, har bir bosqich o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi. Quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Engage (Jalb etish):** O‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va mavzuga qiziqtirish.

2. **Explore (Tadqiq qilish):** O‘quvchilar mavzu bo‘yicha amaliy tajribalar yoki faoliyatlar orqali bilimlarni kashf qilishadi.

3. **Explain (Tushuntirish):** O‘qituvchi o‘quvchilarga yangi bilimlarni izohlaydi va tushuntiradi.

4. **Elaborate (Qo‘llash):** O‘quvchilar yangi bilimni qo‘llash va kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratish.

5. **Evaluate (Baholash):** O‘quvchilarning o‘rganish jarayonini baholash va ularning bilimlarini tekshirish.

Engage (Jalb etish): Bu bosqichda o‘quvchilar yangi mavzu bilan tanishtiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish uchun savollar berishi yoki qiziqarli hodisalar, tajribalar orqali mavzuni boshlaydi.

Explore (Tadqiq qilish)

O‘quvchilarning faolligi: Bu bosqichda o‘quvchilar o‘rganilayotgan materialni mustaqil tarzda yoki kichik guruhlarda amaliy ishlar orqali kashf qilishadi. O‘quvchilar tajriba, kuzatish va diskussiyalar orqali yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Explain (Tushuntirish)

O‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni tushuntiradi. Bu bosqichda o‘qituvchi tushuntirishlarni yanada chuqurlashtirib, ilmiy izohlar beradi. Bu o‘quvchilarning anglashiga yordam beradi va yangi bilimlarni tizimlashtiradi.


Elaborate (Qo‘llash)

O‘quvchilar yangi o‘rganilgan bilimni boshqa holatlar yoki yangi vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu bosqichda

o‘quvchilar ilgari o‘rganilgan materialni yangi, murakkab vaziyatlarda qo‘llashga chaqiriladi.

Evaluate (Baholash)

O‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini baholaydi. Bu bosqichda testlar, so‘rovnomalar, o‘quvchilarning amaliy faoliyatini baholash va boshqa metodlar orqali o‘rganilgan bilimlar tekshiriladi.



3C+1E modeli.

3C+1E modeli o'quvchilarning o'rganish jarayonida yaratuvchanlik va ilmiy izlanishni ta'minlash uchun ishlatiladigan yana bir pedagogik yondashuvdir. Model quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Capture Interest (Qiziqishni uyg'otish):** O'quvchilar mavzuga qiziqishlarini uyg'otib, faol ishtirok etadilar.
2. **Construct Understanding (Tushunishni shakllantirish):** O'quvchilar yangi bilimlarni amaliy ravishda yaratadilar, asosiy tushunchalarni tushunadilar.
3. **Consolidate Learning (O'rganishni mustahkamlash):** O'quvchilar o'z bilimlarini boshqalar bilan almashadilar va o'rganganlarini mustahkamlaydilar.
4. **Enrichment (Boyitish):** O'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar uchun tabaqalashtirilgan ta'lim.

Capture Interest (Qiziqishni uyg'otish):

Bu bosqichda o'quvchilarni jalb qilish, uning e'tiborini tortish va keyingi ma'lumotlarga qiziqtirish jarayonidir. Bu, odatda, kommunikatsiya va ta'lim jarayonlarida muhim bosqich bo'lib, unda auditoriya ma'lumotni o'rganishga qiziqish uyg'otishga harakat qilinadi.

Construct Understanding (Tushunishni shakllantirish): bu jarayonda o'quvchi o'z bilimlarini chuqurlashtiradi, yangi ma'lumotlarni o'ziga moslashtiradi va ularni avvalgi bilimlar bilan bog'lab tushunadi. Bu, asosan, yangi mavzuni o'rganish va uni mantiqan tushunishdan iborat bo'ladi.

Consolidate Learning (O'rganishni mustahkamlash):


Bu bosqichda guruh muhokamalari, taqdimotlar yoki yozma ishlar orqali bilimlar almashiladi. Unda o'rganilgan ma'lumotlar va ko'nikmalarni takrorlash, qayta ishlash va turli sharoitlarda qo'llash orqali ularni mustahkamlash va uzoq muddatli xotiraga joylashtirishga qaratilgan. Bu bosqichda o'quvchi yangi bilimlarni amaliyotga tatbiq etish orqali ularga yanada mustahkamroq va uzoq muddatli tushuncha hosil qiladi.

Enrichment (Boyitish): Bu bosqichda o‘rganilgan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va yanada boyitish jarayonidir. Bu, odatda, o‘rganilgan mavzuga qo‘shimcha masalalar, amaliyotlar yoki yangi fikrlar kiritish orqali amalga oshiriladi. O‘rganganlarni boyitish o‘quvchilarga o‘rgangan materialni yanada kengroq kontekstda ko‘rishga yordam beradi, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimlarni mustahkamlaydi.

5E va 3C+1E Modellarining taqqoslanishi

• **5E modeli:** O‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish, kashf qilish va bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi. Har bir bosqichning o‘ziga xos vazifasi bor va bu jarayonning samarali o‘rganilishini ta’minlaydi.

• **3C+1E modeli:** Bu modelda o‘quvchilar yangi bilimni yaratish, izoh berish, baham ko‘rish va faollikni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



Malaka oshirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish: Malaka oshirish kurslari, treninglar va seminarlar o‘tkazish. Onlayn platformalar orqali mustaqil o‘qish va sertifikat olish. Professional jamoalarda ishtirok etish va tajriba almashish.

Foydalaniladigan metodlar va usullar

4. Faol o‘qitish usullari:

- Treninglar, rol o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish
- Interfaol seminar va mahorat darslari

5. Mustaqil o‘rganish usullari:

- Onlayn kurslar, vebinarlar va video darslardan foydalanish
- Kitoblar va ilmiy maqolalar o‘qish

6. Jamoaviy ish usullari:

- Tajriba almashish uchrashuvlari
- Loyihalar va guruhli ishlash

7. Refleksiya va tahlil:

- Faoliyatni o‘z-o‘zini baholash orqali rivojlantirish
- Professional yutuqlar va kamchiliklarni tahlil qilish

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu XXI asr ko‘nikmalaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini tizimli, mantiqiy, va ma’lumotlarga asoslangan tarzda ifodalash, muammolarni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni qabul qilish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida bilimlarni qo‘llashni o‘rgatadi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarga nafaqat fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llash imkoniyatini beradi.

Tanqidiy fikrlash nima?

Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida grek. fikrlashning “tanqidiy” shakli sifatida yuritiladi. “Kritikos”- “tanqid”, “baholash”, “imtihon” va boshqalar. ko‘p ma’noli so‘zdan kelib chiqqan;bu yerda “tanqid” tushunchasi kundalik hayotda “ayblash” ma’nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma’nosini bildiradi va “baholash”, “aniqlash”, “hukm qilish”, “ajratish qobiliyati” kabi ma’nolarga ega. Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari, shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya’ni bundan 2500 yil avval [Sugrotning](#) o‘qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmunni uchratish mumkin; Sugrot savollarni tekshirishning yangi usulini ixtiro qildi, bu odamlarning bilimga bo‘lgan ishonchini oqilona aniqlashga qodir emasligining zaifligini ko‘rsatdi va bunda Sokratik kinoya ham bor edi.

***Tanqidiy fikrlash** — bu ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, baholash, va mulohaza qilish jarayoni. U o‘quvchilarga faqat faktlarni o‘rganish emas, balki ularga tahliliy, mantiqiy yondashishni, farqlarni ko‘rish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi.*

Tanqidiy fikrlashning turli xil ta’riflari mavjud:

“Javob yoki xulosaga kelish uchun axborotni faol, mohirona shakllantirish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash jarayoni”.

“Aniq, oqilona, ochiq fikrli va asosli intizomli fikrlash”.

“Maqsadli, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi xulosa, sharhlash, tahlil qilish, baholash va xulosa qilish, shuningdek, ushbu xulosaga asos bo‘lgan dalillar, kontseptual, uslubiy, mezon yoki kontekstual tushunchalarni tushuntirish”.

“Tanqidiy fikrlash – bu odamlardan fikr yuritishni va ularning e’tiqodlari va harakatlarini boshqaradigan qarorlar qabul qilishga e’tibor berishni talab qiladigan fikrlash usuli. Tanqidiy fikrlash odamni mantiqiy xulosalar chiqarishga, murakkab ma’lumotlarni qayta ishlashga, narsalarga turli tomonlardan qarashga o‘rgatadi, shuning uchun ular ishonchliroq xulosalar chiqarishi mumkin”.

Tanqidiy fikrlashning yettita tanqidiy xususiyati mavjud: izlanuvchan va ishtiyoqli, har xillarga ochiq, tizimli fikrlashga qodir,

analitik, haqiqatda qat'iyatli, tanqidiy fikrlashda ishonchli va keyin yetuk.

Tanqidiy fikrlash bir necha yo'llar bilan belgilanishi mumkin bo'lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi – qoniqarli natijaga erishish uchun kuchli intilish haqida umumiy fikr mavjud, bunga oqilona fikrlash va natijaga asoslangan yondashuv orqali erishish kerak. Xelperning so'zlariga ko'ra, tanqidiy fikrlash, birinchi navbatda, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimollardan samarali foydalanish kabi o'rganish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu fikrlash jarayonida ishtirok etish tendentsiyasini ham o'z ichiga oladi. Stanovich so'nggi yillarda zamonaviy IQ testlari tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'lchay olmayotganini aytadi.

Kreativlik va tanqidiy fikrlash

Fikrlash jarayonini ikkiga bo'lish mumkin: kreativ va tanqidiy fikrlash.

Kreativ fikrlash - yangi, g'ayrioddiy va innovatsion g'oyalarni yaratishga qaratilgan fikrlash turidir.

Tanqidiy fikrlash esa mavjud fikrlar, bilimlar va g'oyalarni chuqur tahlil qilish va baholashga qaratilgan. Kreativ fikrlashda muhim omil yangi yechimlar topish va o'zgacha qarashlarni ilgari surish bo'lsa, tanqidiy fikrlashda bu yechimlarning amaliyoti va to'g'riligini baholash, ularning ijobiy yoki salbiy tomonlarini aniqlash jarayoni mavjud.

Texnologiya va innovatsiyalar: Muammoli ta'limda rivojlantirish

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, interaktiv ta'lim vositalari, o'quvchilarga ilmiy fikrlashni rivojlantirishda katta yordam beradi. Texnologiyalarni qo'llash, nafaqat darslarni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi, balki o'quvchilarga murakkab fanlarni tushunishda ko'maklashadi.

Interaktiv ta'lim platformalaridan foydalanish, o'quvchilarga o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. Muammoli ta'lim metodlari yordamida o'quvchilar nazariy bilimlarni nafaqat

o'rganadilar, balki o'sha bilimlarni real hayotdagi muammolarni hal qilishda qo'llashni ham o'rganadilar.

Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarni o'rganish jarayonida faollashtiradigan va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradigan ta'lim metodidir. Bu texnologiya o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni qabul qilishni emas, balki o'zlari uchun yangi bilimlarni kashf qilish va turli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarini ham o'rgatadi. Muammoli ta'lim metodining asosiy xususiyatlaridan biri - o'quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish va shu orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkoniyatini yaratishdir.

Hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchilar hayotiy voqealar yoki amaliy vaziyatlar asosida muammolarni hal qilishga qaratilgan topshiriqlarni bajaradilar. Bu jarayonda, o'quvchilar turli o'lchovlar olib, olingan natijalarni tahlil qilishlari kerak bo'ladi.

Bunday muammoli vaziyatlar, o'quvchilarga faqatgina nazariy bilimlarni emas, balki real dunyo tajribalarini ham o'rganishga yordam beradi. O'quvchilar o'zlari muammo yechish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri jalb qilinganligi sababli, bu usul ularning fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Sabab va oqibatlar. Muammoli ta'limda sabab va oqibatlarining bog'lanishini tushunish ham katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar bu sabablarni tahlil qilish orqali, hodisaning oqibatlarini, ya'ni suyuqlikning yuqoriga ko'tarilishiga yoki pastga tushishiga olib keluvchi omillarni aniqlashlari mumkin.

Tanqidiy munosabat. Muammoli ta'limda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish juda muhim. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga o'zlarining o'rgangan bilimlarini baholash, mavjud bilimlar orasida farqni ko'rish va yangi bilimlarni tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi. O'quvchilar turli ilmiy masalalarni o'rganish jarayonida o'z fikrlarini, kuzatishlarini va tahlillarini jonli tarzda

ifodalashlari kerak bo‘ladi. Bu, shuningdek, o‘quvchilarga bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Bu o‘quvchilarga ilmiy metodologiyalarning asoslarini o‘rganishga yordam beradi va ular o‘rganganlarni tahlil qilishga o‘rganadilar.

Yechimlar va xulosalar. Muammoli ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarga bilimlarni o‘zlashtirishda amaliy yondashuvni shakllantirishdir. O‘quvchilar muammolarni hal qilishda faqat faktlarni bilibgina qolmay, balki bu faktlarga asoslanib yangi yechimlar ishlab chiqishlari kerak.

O‘quvchilar tajriba o‘tkazgan holda, bu jarayonning natijalarini tahlil qilishlari va olingan natijalarga asoslanib, yangi yechimlar yoki nazariyalar ishlab chiqishlari kerak. Bu yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy usullarni qo‘llash va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

Muammoli ta’lim metodida o‘quvchilar ko‘proq muammoni yechishga qaratilgan natijalarni olishadi. Ular bilimlarini amaliyotda qo‘llashda yangi imkoniyatlar yaratadilar, bilimlarining samaradorligini sinovdan o‘tkazadilar va o‘zlari xulosalar chiqarishga erishadilar.

Muammoli ta’lim texnologiyasi orqali o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashga, tahliliy va kreativ fikrlashga o‘rgatish mumkin. Muammoli vaziyatlar taqdim etish, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va ularda ilmiy metodologiyani shakllantiradi. Bu jarayonda o‘quvchilar faqatgina nazariy bilimlarni o‘rganmaydilar, balki ularni amaliyotda qo‘llashni ham o‘rganadilar. Muammoli ta’lim, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Bu metod, ta’limning sifatini oshirish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda samarali vositadir.

O‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini baholash topshiriqlari

Kasbiy va uslubiy kompetensiyani oshirish uchun maxsus tayyorlangan topshiriqlar o‘qituvchi, mutaxassis yoki boshqa professional shaxsning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyida turli yo‘nalishlar bo‘yicha kasbiy

va uslubiy kompetensiyani oshiruvchi topshiriqlarning namunalari keltirildi.

1. Uslubiy va dars ishlanmalar yaratish topshiriqlari

Bu topshiriqlar o'qituvchi yoki mutaxassisning uslubiy yondashuvlarini mustahkamlashga, jamoaviy faoliyat va hamkorlikdagi rivojlanishga yordam beradi. Guruhingiz bilan hamkorlikda o'zingizning faningiz yoki sohangiz bo'yicha yangi dars ishlanmasi yoki metodik qo'llanma yarating. O'quv jarayonida innovatsion metodlarni joriy qilish bo'yicha fikr almashish uchun jamoaviy seminar o'tkazing.

Muammoli vaziyatlar asosida topshiriqlar (Case study)

Bu turdagi topshiriqlar muammolarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. O'zingiz duch kelgan qiyin ta'limiy vaziyatni tahlil qiling va uning yechim variantlarini ishlab chiqing.

Analitik topshiriqlar

Bu turdagi topshiriqlar sohani tahlil qilish va muammolarni aniqlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ishingizdagi kuchli va zaif tomonlarni tahlil qiluvchi SWOT tahlilini bajaring.

Amaliy mashg'ulot.

Tinglovchilar 4-5 kishilik guruhlariga bo'linadilar. Differensial yondashuv asosidagi ta'lim bo'yicha o'z qiziqishlaridan kelib chiqib, topshiriqlardan birini tanlaydilar. O'z topshiriqlari asosida jamoa bilan hamkorlikda ish olib boradilar.

Kasbiy refleksiya.

Tinglovchilar bilan o'tilgan mavzu va quyidagi savollarga javob berish orqali xulosa qilinadi.

- “Bu loyiha mening mahoratimni qanchalik rivojlantirdi?”
- “Nimalarni yaxshilashim kerak?”

Xulosa.

- Dars yuzasidan xulosa qilish.
- Mashg'ulot natijalarini umumlashtirish.
- Kelgusi mashg'ulotlar uchun tavsiyalar berish.

Topshiriqlar

1-topshiriq. Amaliy mashg'ulot.



O'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash. Tinglovchilar 4-5 kishilik 4 guruhga bo'linadilar. Har bir guruh 4 xil vazifani bajaradi hamda topshiriqlar bajarilgach, taqdimot qiladi.

1-guruh. Hamkorlikda dars ishlanmasi yoki loyiha ishlab chiqish.

2-guruh. O'quv jarayonida innovatsion metodlarni joriy qilish bo'yicha fikr almashish uchun jamoaviy seminar yoki master-klass o'tkazish.

3-guruh. O'zlari duch kelgan qiyin ta'limiy vaziyatni tahlil qilish va uning yechim variantlarini ishlab chiqish.

4-guruh. Ishlaridagi kuchli va zaif tomonlarni tahlil qiluvchi SWOT tahlilini bajarish. 1-tarqatma.

1-tarqatma

SWOT tahlilining tarkibiy qismlari:

Strengths (Kuchli tomonlar):

Weaknesses (Zaif tomonlar):

Opportunities (Imkoniyatlar) Tashqi muhitdagi ijobiy omillar yoki imkoniyatlar:

Threats (Xavf-xatarlar) Tashqi muhitdagi salbiy omillar yoki xavf-xatarlar:

1-topshiriq.

Dars jarayonida amalga oshirgan topshiriqlari yuzasidan har bir tinglovchi 2-tarqatmani to'ldirib, o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.



Kasbiy refleksiya

"Bu loyiha mening mahoratimni qanchalik rivojlantirdi?"
"Nimalarni yaxshilashim kerak?"

"Bu loyiha mening mahoratimni qanchalik rivojlantirdi?"



"Nimalarni yaxshilashim kerak?"



Mulohaza uchun savollar.

1. Kasbiy va metodik kompetentlik deganda nimani tushunasiz?
2. Kasbiy kompetentlik qanday turlarga bo‘linadi?
3. O‘zini kasbiy rivojlantirish va o‘z-o‘zini baholash usullarini sanab bering.
4. O‘zini rivojlantirish hamda ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish o‘qituvchiga nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?
5. O‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish va baholash vositalariga nimalar kiradi?
6. Kasbiy kompetensiya deganda nimani tushunasiz?
7. Siz o‘z ustingizda ishlash jarayonini qanday tashkil qilasiz?

2.1. Ommalashtirish haqida umumiy ma'lumot.

Reja:

1. Ommalashtirish haqida umumiy ma'lumot
2. Respublika miqyosida ommalashtirilgan ishlardan namunalar bilan tanishtirish.
3. Ommalashtirish maqsadida tayyorlanadigan metodik qo'llanma va metodik tavsiya ishlab chiqish uchun vazifalar.

Kalit so'zlar: ommalashtirish, ilg'or tajriba, kasbiy mahorat, ommalashtirish turlari.

O'qituvchilarning ilg'or ish-tajribalarini ommalashtirish mavzusi bugungi kunda ko'plab pedagoglarni qiziqtirmoqda. Lekin metodik tavsiya yoki metodik qo'llanma yozish talablari haqida yetarli bilimga ega bo'lmaganliklari uchun doimiy muammo va qiyinchilikka duch kelmoqdalar.

Ommalashtirishning maqsadi - umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quv jarayoniga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yishdan iborat.

Ommalashtirish uchun tavsiya etilgan ilg'or ish tajribalar metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya ko'rinishda bo'lishi lozim. Metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya ko'rinishida bo'lmagan hamda o'tgan yillar davomida ommalashtirilgan metodik ishlar o'rganilmaydi.

Metodik ishlar quyidagi bosqichlarda ommalashtiriladi:

- ❖ maktab miqyosida;
- ❖ tuman (shahar) miqyosida;
- ❖ viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida;
- ❖ respublika miqyosida.

O'qituvchilarning ilg'or ish-tajribalarini ommalashtirish ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish uchun muhim vositalardan biridir. Bu jarayon ta'lim tizimidagi

barcha ishtirokchilar uchun foydali bo‘lib, innovatsion g‘oyalarni keng miqyosda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Ommalashtirish orqali

- o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi oshadi;
- ta’lim tizimida samaradorlik va sifat oshadi.
- o‘qituvchilar o‘rtasida ijobiy raqobat va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhiti shakllanadi.

O‘qituvchilar o‘z ish tajribalarini ommalashtirish uchun ishlanmalar yaratishdan avval o‘zlariga bir nechta savollar bilan murojaat qilishlari lozim.

Ommalashtirish tartibi

Ommalashtirish tartibi, ta’lim tizimida faoliyat yuritayotganlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalar va metodikalarni keng jamoatchilikka taqdim etish va ularni amaliyotga joriy qilish jarayonidir. Bu jarayon orqali yangi ta’lim resurslari va dasturlarini ta’lim muassasalariga yetkazish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash maqsad qilinadi.

Ommalashtirish shakllari:

- Seminar-treninglar
- Ustoz-shogird tizimi
- Video darslar va master-klasslar
- Metodik qo‘llanma va metodik tavsiya
- Tuman, viloyat yoki respublika miqyosidagi targ‘ibot anjumanlari

2.2. Respublika miqyosida ommalashtirilgan ishlardan namunalar bilan tanishtirish.

Reja:

1. Respublika miqyosida ommalashtirilgan ishlardan namunalar.
2. Ommalashtirish bosqichlari.

Kalit soʻzlar: namuna, maktab, tuman, Respublika, ishchi guruh, ommalashtirish.uz.

Ommalashtirilgan ishlar bilan tanishish oʻqituvchilarga pedagogik faoliyatini rivojlantirish va taʼlimsamaradorligini oshirishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Tajriba almashiladi. Quyida bu jarayonning asosiy afzalliklari keltirilgan:

- ✓ Boshqa oʻqituvchilar tomonidan sinovdan oʻtgan samarali metodlarni oʻrganish.
- ✓ Amaliy ishlarda foydalanish uchun yangi pedagogik usullarni oʻzlashtirish imkoniyati.
- ✓ Amalda sinovdan oʻtgan tajribalarni oʻz darslarida tezroq qoʻllash imkonini beradi.
- ✓ Zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar va yangi yondashuvlar bilan tanishish.
- ✓ Oʻz tajribasini boshqalarnikiga solishtirish orqali kasbiy oʻsishga erishish.
- ✓ Yangi bilimlar asosida oʻqituvchilik mahoratini takomillashtirish.
- ✓ Ilgʻor tajribalarni oʻrgangan holda, boshqa oʻqituvchilar bilan fikr almashish va hamkorlik qilish.
- ✓ Zamonaviy taʼlim talablariga moslashish.
- ✓ Oʻz kasbida yetakchilikka intilish va innovatsion yondashuvlar bilan farqlanish imkoniyati.
- ✓ Samarali va ilgʻor tajribalar asosida oʻqituvchilarga yanada sifatli bilim berish.

- ✓ O‘quvchilarning qiziqishi va faolligini oshiruvchi usullarni qo‘llash.
- ✓ Ilg‘or ishlar o‘qituvchilarga faqat metodlarni emas, balki yangi mavzularni chuqur o‘rganish imkonini ham beradi.
- ✓ Boshqalarning yutuqlari va tajribalarini ko‘rib, o‘z faoliyatini rivojlantirishga intilish.
- ✓ Kasbiy mahoratni oshirish uchun yangi imkoniyatlar izlashga undaydi.

Ommalashtirilgan tajribalar bilan tanishish orqali o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida ilg‘or yondashuvlarni joriy etib, ta’lim samaradorligini oshiradilar va yangi pedagogik g‘oyalarni hayotga tatbiq etishda ishonchli qadam tashlaydilar.

1. Kirish qismi

- Ilg‘or tajribaning qisqacha tavsifi
- Tajriba qo‘llanilgan muassasa (maktab, kollej, texnikum, universitet) va muallif haqida ma’lumot
- Tajribaning dolzarbligi va amaliy ahamiyati
- Maqsad va vazifalar

2. Ilg‘or tajribaning asosiy jihatlari

- Ilg‘or ish tajribasi tatbiq etilgan yo‘nalish (masalan: fan o‘qitish metodikasi, STEAM yondashuvi, axborot texnologiyalaridan foydalanish, tarbiyaviy ishlar, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash)
 - Amalga oshirilgan innovatsion metodlar yoki pedagogik yondashuvlar
 - Qo‘llanilgan vositalar (dasturiy ta’minot, o‘quv resurslari, metodik materiallar)
 - Ish jarayoni va bosqichlari

3. Erishilgan natijalar

- O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalaridagi o‘zgarishlar
 - Monitoring va baholash tizimi
 - Statistik yoki sifat ko‘rsatkichlari (ko‘rsatkichlar diagramma, jadval ko‘rinishida keltirilishi mumkin)

- Ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat tomonidan berilgan fikr-mulohazalar

4. Taklif va tavsiyalar

- Ushbu tajribani boshqa muassasalarda tatbiq etish yo‘llari
- Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni hal qilish mexanizmlari
- Keyingi istiqboldagi rejalashtirilgan takomillashtirish yo‘nalishlari

5. Ilovalar

- Dars ishlanmalari, metodik ko‘rsatmalar, elektron manbalar ro‘yxati
- Fotosuratlar, video lavhalar (agar mavjud bo‘lsa)
- Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Metodik ishlanma namunaviy sarlavhasi:

“STEAM asosida fizika fanini o‘qitish bo‘yicha ilg‘or ish tajribasi va uni ommalashtirish metodikasi”

Muallif: X.X.Xalilova, 5-sonli ixtisoslashtirilgan maktab fizika fani o‘qituvchisi

Tuman: Xatirchi tumani

Viloyat: Navoiy viloyati

Yil: 2025

1. Ilg‘or ish tajribasi nima?

Ilg‘or ish tajribasi — bu o‘qituvchi yoki muassasa tomonidan o‘quv-tarbiya jarayonida samarali, innovatsion va yuqori natija bergan metod, texnologiya yoki tashkiliy yondashuvlarning amalda qo‘llanilishi bo‘lib, boshqa pedagoglar tomonidan ham foydalanishga tavsiya qilinadigan faoliyatdir.

2. Ilg‘or ish tajribalarining ommalashtirish mezonlari:

- Yangilikka asoslangan bo‘lishi (innovatsion yondashuv)
- Samaradorlik (natijalarning o‘sishi, o‘quvchilarning faolligi)
- Takroriylik (boshqa muassasalarda tatbiq etish imkoni)
- Moslashuvchanlik (turli sharoitlarda qo‘llash mumkinligi)

•Metodik asoslanganlik (yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar mavjudligi)

3. Ilg‘or ish tajribalari yo‘nalishlari:

Yo‘nalish	Tavsifi
Innovatsion pedagogik texnologiyalar	CLIL, STEAM, Project-Based Learning, Differensial yondashuvlar
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	Interaktiv ilovalar, platformalar (Quizizz, Wordwall, Kahoot, LearningApps)
Tarbiyaviy ishlar	Vatanparvarlik, ekologik, huquqiy tarbiya loyihalari
Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash	Fan olimpiadalariga tayyorlash, startap loyihalar, to‘garaklar
Inklyuziv yondashuv	Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash tajribalari
Hamkorlikda o‘qitish	Jamoaviy darslar, mentorlik, kollegial tahlil

4. Amaliy misollar (namunaviy):

1. Mavzu: “STEAM yondashuvi asosida tabiiy fanlarni integratsiyalash”

- Muallif: G‘.Sharipova, biologiya o‘qituvchisi
- Qisqacha: O‘quvchilarga biologiya, fizika va matematika fanlarining integratsiyasini laboratoriya loyihalari orqali o‘rgatish.
- Natija: Fanlarga qiziqish ortdi, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari rivojlandi.

2. Mavzu: “Virtual laboratoriyalar orqali fizika fanini o‘qitish”

- Muallif: T.Xolmatov, fizika fani o‘qituvchisi
- Qisqacha: Simulatsiyalar (PhET, Labster) yordamida tajribalarni interaktiv tarzda o‘rgatish.
- Natija: Yil yakuni reytingida o‘quvchilarning natijalari 20% ga yaxshilandi.

3. Mavzu: “Men va atrofim” loyihasi asosida ekologik tarbiya

- Muallif: N.Mamajonova, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
- Qisqacha: Mahalliy tabiatni asrash, chiqindilarni ajratish bo‘yicha o‘quvchilarning loyihaviy ishlari.
- Natija: Mahalla hamjamiyati bilan bog‘liq ishlarda faol ishtirok, ijtimoiy kompetensiyalar rivoji.

Metodik ishlar quyidagi bosqichlarda ommalashtiriladi:

- maktab miqyosida;
- tuman (shahar) miqyosida;
- viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosida;
- respublika miqyosida.

Maktab miqyosida ommalashtirish:

Umumta’lim muassasasining fan o‘qituvchisi tomonidan ilg‘or tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik ish yo‘nalishlar bo‘yicha maktabning Metodbirlashmasi tomonidan muhokama qilinadi hamda ilg‘or ish tajribaga ega deb topilgan taqdirda maktab miqyosida ommalashtirish uchun maktabning Pedagogik kengashiga tavsiya etiladi.

Metodbirlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengashda talabgorning metodik ishi mazkur buyruq bilan tasdiqlangan metodik ishga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezoniga muvofiq ishlab chiqilganligi o‘rganib chiqiladi hamda maktab miqyosida ommalashtirish yoki ommalashtirmaslik bo‘yicha Pedagogik kengash qaror qabul qiladi.

Agar talabgorning metodik ishiga ijobiy xulosa berilib, ommalashtirishga loyiq deb hisoblansa, Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiriladi va ommalashtirish.uz platformasiga joylashtirilib keyingi bosqichlarga yuboriladi.

Bunda, quyidagi hujjatlar talabgor tomonidan ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi:

1. Maktab miqyosida ommalashtirilganligi to‘g‘risida Pedagogik kengash qarorining elektron (pdf) nusxasi;









2. Ommalashtirish uchun tavsiya etiladigan metodik ishi (metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya)ning elektron (pdf) nusxasi;

3. Talabgor to'g'risida ma'lumotnoma (obyektivka) va mutaxassisligi bo'yicha diplom nusxasi.

Tuman (shahar) va viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish:

ommalashtirish.uz platformasi orqali yuborilgan metodik ish Muvofiqlashtiruvchi ishchi organning tegishli fanlar bo'yicha O'quv metodik kengashi tomonidan o'rganib chiqiladi. Ushbu jarayonlarga Pedagogik mahorat markazlarining pedagoglarni kasbiy rivojlanish bo'yicha direktor o'rinbosarlari mas'ul hisoblanadi.

Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha O'quv-metodik kengashlar tashkil etiladi:

-  boshlang'ich ta'lim yo'nalishi;
-  filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o'zbek tili, qardosh tillar) yo'nalishi;
-  rus va xorijiy tillar fanlari yo'nalishi;
-  ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) yo'nalishi;
-  aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) yo'nalishi;
-  tabiiy va iqtisodiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fanlar) yo'nalishi;
-  amaliy fanlar (musiqa madaniyati, tasviriy san'at, texnologiya) yo'nalishi;
-  jismoniy tarbiya (jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik) yo'nalishi.

O'quv-metodik kengash tarkibi Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi metodik xizmat bo'limlarining metodistlari, kafedralar professor-o'qituvchilari hamda boshqa ta'limmuassasalarining ijodkor, tajribali o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. O'quv-metodik kengash a'zolari yo'nalishlar bo'yicha 9-15 nafardan iborat bo'ladi.

Talabgorning metodik ishi maksimal 80 ball bilan baholanadi. Talabgor tomonidan tayyorlangan metodik ish mazkur buyruq bilan tasdiqlangan metodik ishga qo'yilgan talablar hamda baholash mezoniga asosan baholanadi.

Bunda, 50-65 ball bilan baholangan metodik ishlar tuman (shahar) miqyosida, 66-80 ball bilan baholangan metodik ishlar viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirilgan deb hisoblanadi va **ommalashtirish.uz** platformasi orqali sertifikat olish uchun yuboriladi.

Shundan, 75-80 ball bilan baholangan metodik ish respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Qoraqalpoq tilidagi metodik ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi hamda Pedagogik mahorat markazi bilan hamkorlikda o'rganib chiqilib, O'quv metodik kengash qarori asosida respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Bosqichlar uchun talab etiladigan ballarni to'play olmagan talabgorlarning metodik ishi asoslantirilib, **ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtiriladi.

Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish to'g'risida tegishli O'quv metodik kengashi qarori har yili 15-mayga qadar **ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtirilishi lozim.

O'quv metodik kengash qaroridan norozi bo'lgan talabgorlar uchun ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

ommalashtirish.uz platformasi orqali tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish uchun yuborilgan ishlar Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O'quv metodik kengash qaroriga muvofiq Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan sertifikat beriladi.

Respublika miqyosida ommalashtirish:

Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O'quv metodik kengash tavsiyasi asosida respublika miqyosida ommalashtirish uchun

yuborilgan metodik ishlar Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashida o'rganiladi.

Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi Institut hamda Respublika ta'limmarkazining 9-11 nafar mutaxassislaridan iborat tarkibda shakllantiriladi. Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashiga Institut rektori hamda Respublika ta'limmarkazi direktori hamraislik qiladi. Respublika miqyosidagi ommalashtirish bosqichida talabgor tomonidan metodik ishi yuzasidan taqdimot qilinadi va maksimal 20 ball bilan baholanadi. Taqdimot uchun baholash mezonini Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ishlab chiqilib, respublika bosqichi boshlanishidan bir oy oldin ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi.

Taqdimot jarayoni videoyozuvda qayd qilinadi. Videoyozuv Institutda bir yil davomida saqlanadi.

Respublika bosqichida umumiy 86-100 ball bilan baholangan metodik ish Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan respublika miqyosida ommalashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi hamda har yili 30-mayga qadar ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi.

➤ **Ro'yxatdan o'ting.**

ERP orqali tizimimizdan ro'yxatdan o'ting va o'z ishingizni ommalashtirish uchun tizimga 20-martgacha joylang.

➤ **O'rganib chiqishini kuting.**

Shundan so'ng, baholanib tegishli ballar bo'yicha maktab, tuman (shahar), viloyat, viloyatda ommalashtirilib Respublikaga tavsiya etiladi.

➤ **Respublika bosqichiga tavsiya etilgan ishlar**

Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O‘quv metodik kengash tavsiyasi **asosida respublika miqyosida ommalashtirish uchun yuborilgan metodik ishlar Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashida** o‘rganiladi. Respublika miqyosidagi ommalashtirish bosqichida talabgor tomonidan **metodik ishi yuzasidan taqdimot qilinadi** va maksimal **20 ball** bilan baholanadi. Taqdimot uchun baholash mezonini Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ishlab chiqilib, respublika bosqichi boshlanishidan **bir oy oldin ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtiriladi. Taqdimot jarayoni videoyozuvda qayd qilinadi. Videoyozuv Institutda bir yil davomida saqlanadi. Respublika bosqichida umumiy **86-100 ball** bilan baholangan **metodik ish** Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan respublika miqyosida ommalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi hamda har yili **30-mayga qadar ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtiriladi.

➤ **Sertifikatni yuklab oling.**

Sizning ishingiz ommalashgan bo‘lsa, o‘zingizning shaxsiy kabinetingizdan ishingiz ommalashgani to‘g‘risida Sertifikatlarni yuklab oling.

Metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya yaratish o‘qituvchilar, trenerlar yoki boshqa mutaxassislar uchun o‘z faoliyat sohasiga doir aniq, tizimli yondashuvni ko‘rsatib beruvchi hujjat hisoblanadi. Quyida metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya yozish uchun umumiy tuzilma va namunaviy yo‘riqnoma taqdim etiladi.

■ Metodik qo‘llanma / tavsiya tayyorlash tuzilmasi

1. Muqova (titul varaqlari)

- Tashkilot nomi
- Qo‘llanma nomi (masalan: “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish malakasini shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiya”)
- Muallif(lar)
- Tayyorlangan yil va joy

2. Kirish (annotatsiya yoki kirish so‘zi)

- Qo‘llanmaning maqsadi

- Kimlar uchun mo'ljallanganligi (o'qituvchilar, pedagoglar, amaliyotchilar va h.k.)

- Asosiy muammo va uni hal qilish yo'llari

3. Asosiy qism

Asosiy qism bo'limlarga bo'linadi. Har bir bo'limda aniq metodik tavsiyalar, uslublar yoki texnologiyalar ko'rsatiladi:

1-bo'lim: Nazariy asoslar

- Mavzuga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar
- Amaldagi tajribalar

2-bo'lim: Amaliy metodik tavsiyalar

- Dars ishlanmalari (reja, metod, shakl va vositalar)
- O'quvchilar faoliyatini tashkil qilish usullari
- Interfaol metodlardan foydalanish

3-bo'lim: Misollar, tavsiya etiladigan mashqlar

- Mashg'ulot namunasi
- Topshiriqlar, testlar, o'yinlar yoki baholash mezonlari

4. Xulosa va tavsiyalar

- Amalga oshirishdagi muhim jihatlar
- Pedagoglarga yoki tashkilotchilarga umumiy maslahatlar

5. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Kitoblar, maqolalar, ilmiy manbalar, qonunchilik hujjatlari

6. Ilovalar (agar bo'lsa)

- Grafiklar, jadvallar, qo'shimcha materiallar
- Dars ishlanma namunasi yoki sxemalar



Maslahatlar:

- Til sodda va tushunarli bo'lishi kerak.
- Amaliy tajriba va misollarga ko'p o'rin bering.
- Har bir metodni qanday qo'llash va natijani qanday o'lchash haqida yozing.

- Interaktiv, zamonaviy uslublarni (CLIL, STEAM, gamifikatsiya va b.) qo'shing.

Ushbu jadval bo'yicha o'z yo'nalishingizga mos ravishda metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya ishlab chiqing.

Sarlavha

Annotatsiya

Kirish.

Asosiy qism.

1.

2.

3.


Xulosa.

Foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati

Mulohaza uchun savollar.

1. Ommalashtirishning qanday turlari mavjud hamda ular necha bosqichda amalga oshiriladi?
2. Ommalashtirish.uz platformasi haqida nimalar bilasiz?
3. Ilg'or ish tajribasi nima?
4. Ommalashtirish ishlari qaysi yo'nalishlar doirasida o'tkaziladi?
5. Ommalashtirish deganda nimani tushunasiz?
6. Ommalashtirishning maqsadi nima?

III BOB. METODIK TAVSIYA VA QO‘LLANMA TAYYORLASHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR



3.1. Metodik qo‘llanma va Metodik tavsiya haqida umumiy ma’lumot.

Reja:


1. Metodik qo‘llanma va Metodik tavsiya haqida ma’lumot.
2. Ularning o‘xshash va farqli jihatlari tahlili.

Kalit so‘zlar: Metodik qo‘llanma, Metodik tavsiya, zamonaviy usullar.

Quyida Metodik qo‘llanma hamda Metodik tavsiyaning o‘xshash va farqli taraflarini Venn diagrammasi asosida ko‘rib chiqamiz:

1. Metodik qo‘llanma

2. Metodik tavsiya



Metodik qo'llanma

- O'quv jarayonini samarali tashkil qilish uchun yoziladi;
- O'quv dasturlarini tushunish va ulardan foydalanishni osonlashtirish uchun tuziladi.
- Muayyan mashg'ulot uchun kerakli ma'lumotlar va harakatlar ketma-ketligini beradi.


Metodik tavsiya

- Metodik masalalar bo'yicha o'qituvchilarga beriladigan tavsiyalar to'plami;
- O'quv jarayonidagi dolzarb masalalarni hal qilish uchun yoziladi;
- Ta'limdagi muammolarni yoritadi, zamonaviy usullardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Birlashtiruvchi jihati: Metodik qo'llanma ham, Metodik tavsiya ham o'quv jarayonini yaxshilashga qaratilgan bir-biriga o'xshash hujjat turidir.

Metodik qo'llanma - bu muayyan mavzu yoki fan bo'yicha bilimlarni o'rgatish yoki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan qo'llanma yoki dasturdir. Bu, odatda, o'qituvchilar, murabbiylar yoki boshqa mutaxassislar tomonidan foydalanish uchun tuzilgan bo'lib, o'quv materiallarini tashkil etish, darslarni rejalashtirish, amaliy mashqlar va baholash usullarini o'z ichiga oladi. Metodik qo'llanma ta'limjarayonini samarali va tizimli tarzda tashkil etishga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilarning mavzu yoki ko'nikmalarni chuqurroq tushunishlarini ta'minlaydi.

Metodik tavsiya - o'qitish yoki turli mavzularda bilim berish jarayonida qo'llaniladigan, o'qituvchilar, murabbiylar yoki boshqa mutaxassislar uchun mo'ljallangan ko'rsatma yoki yo'riqnomadir. Ular o'quv dasturini, uslubiy yondashuvlarni, o'quv materiallarini qanday qo'llashni, darslarni qanday tashkil etishni, shuningdek, talabalar bilimini baholash va ularga qo'llab-quvvatlash uchun eng yaxshi amaliyotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Metodik tavsiyalar o'qituvchilarga mavzuni yanada samarali o'rgatishda yordam beradi va ularning pedagogik mahoratini oshirishga qaratilgan.



Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyaning tuzilishi quyidagicha bo‘lishi tavsiya etiladi:

- ✓ Muqova (titul)
- ✓ Sarlavha
- ✓ Annotatsiya

- ✓ Tarkib
- ✓ Mundarija
- ✓ Kirish
- ✓ Asosiy qism
- ✓ Xulosa
- ✓ Ilovalar (qo‘shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar – agar bor bo‘lsa.)

Har ikkisinin umumiy jihatlari mavjud bo‘lsada, **metodik qo‘llanma** odatda kengroq hajmda va chuqur ilmiy asosda yoziladi, **metodik tavsiya** esa ko‘proq amaliy yo‘nalishli va aniq muammoga yechim beruvchi bo‘ladi.

Metodik qo‘llanmaning asosiy tarkibiy qismlari.

Bo‘lim nomi	Mazmuni
Kirish	Qo‘llanmaning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, auditoriyasi (kim uchun mo‘ljallangan), qisqacha metodik asoslari
1-bob. Nazariy asoslar	Metodik mavzu bilan bog‘liq ilmiy-nazariy tushunchalar, ta‘lim texnologiyalari, yondashuvlar
2-bob. Amaliy metodik yondashuvlar	Dars ishlanmalari namunasi, o‘yinli topshiriqlar, loyihalar, interaktiv texnologiyalar asosida darslar
3-bob. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar	Fanning mazmuniga oid tadbirlar, diagnostika, baholash, kreativ topshiriqlar, refleksiya
4-bob. Tajriba va monitoring natijalari (ixtiyoriy)	Qo‘llanma amaliyotda sinovdan o‘tkazilgan bo‘lsa, uning tahlili va xulosalari
Xulosa va tavsiyalar	Qanday pedagogik yutuqlar kuzatildi, umumlashtirish, kelajakda foydalanish yo‘nalishlari
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	Ilmiy-adiabiy manbalar (GOST yoki APA uslubida)
Ilovalar	Jadval, dars ishlanmasi namunasi, testlar, chizmalar, sxemalar

Metodik tavsiyaning asosiy tarkibiy qismlari

Bo‘lim nomi	Mazmuni
Kirish	Muammo dolzarbligi, tavsiya nima uchun kerakligi
Asosiy qism	Amaliy tavsiyalar, metodlar, texnologiyalar, aniq bosqichlar bo‘yicha tavsiyalar
Misollar va tavsiya etiladigan ishlanmalar	1–2 ta real dars ishlanmasi, topshiriq, faoliyat namunasi
Xulosa	Umumiy tavsiyalar, foydalanish yo‘nalishlari, samaradorlik
Foydalanilgan adabiyotlar yoki ilovalar	Minimal ro‘yxat, havolalar yoki materiallar nusxasi (agar bo‘lsa)

Taqqoslovchi jadval: Metodik qo‘llanma va Metodik tavsiya

Ko‘rsatkichlar	Metodik qo‘llanma	Metodik tavsiya
Maqsad	Keng qamrovli, ilmiy-nazariy va amaliy	Aniq metodik muammoga echim taklif qilish
Hajm	20 betdan ortiq	5–20 bet
Tuzilma	Boblarga bo‘lingan	Soddalashtirilgan
Auditoriya	O‘qituvchilar, trenerlar, metodistlar	Amaliyotchi pedagoglar, ustozlar
Ilmiylik darajasi	Ilmiy-nazariy asoslangan	Amaliy-pedagogik
Baholovchi hujjat	Taqriz, ekspert xulosasi (ko‘pincha)	Ko‘pincha taqrizsiz

3.2. Metodik qo‘llanma va Metodik tavsiyaga qo‘yiladigan umumiy talablar.

Reja:

1. Mazmunga qo‘yilgan talablar.
2. Shakliy-texnik talablar.
3. Til, uslub, ma’no va ifodaga qo‘yilgan talablar.
4. Titul sarlavha sahifasi tuzilishi.

Kalit so‘zlar: mazmun, ma’no, ifoda, texnik talab, rasmiylashtirish.

Jihatlar	Metodik qo‘llanma	Metodik tavsiya	O‘xshash jihatlar
Ta’rif	Ma’lum bir soha yoki jarayon bo‘yicha batafsil yo‘riqnoma va qoidalar to‘plami	Ma’lum bir masala yoki vazifa bo‘yicha tavsiya va maslahatlar majmui	Ikkalasi ham metodik yo‘riqnoma sifatida ishlatiladi
Maqsad	Amaliy ishlarni tizimli, aniq va to‘g‘ri bajarishni ta’minlash	Muayyan vazifani samarali bajarishga yordam berish, maslahat berish	Maqsadi — ish sifatini oshirish
Mazmuni	Batafsil ko‘rsatmalar, bosqichma-bosqich ta’riflar	Oddiy tavsiyalar, maslahatlar va tavsiyalar to‘plami	Mazmuni metodik bo‘lib, amaliy yo‘riqnomalar beradi
Ko‘lam	Keng qamrovli va to‘liq, umumiy yo‘riqnoma bo‘lishi mumkin	Muayyan vazifa yoki muammoni hal qilishga qaratilgan	Har ikkisi ham aniq vazifalar uchun yaratiladi
Foydalanish tartibi	Aniq va qat’iy qoidalarga asoslangan, ko‘proq majburiy	Ko‘proq tavsiya va maslahat sifatida, majburiy emas	Ikkalasi ham amaliy ishlarni yengillashtirish uchun mo‘ljallangan
Misol	O‘qituvchilar uchun dars o‘tish metodik qo‘llanmasi	O‘qituvchilarga darsda foydalanish uchun metodik tavsiyalar	Ikkalasi ham ta’lim jarayonida qo‘llaniladi

**Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyaning mazmuniga
qo‘yilgan talablar quyidagilardan iborat:**

1. Amaldagi fan dasturlariga mos ravishda yoki dasturlarni takomillashtirish uchun ishlab chiqilganligi;
2. Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyada **“Qanday o‘qitish kerak?”** degan savol ochib berilishi, shuningdek, topshiriq namunalari, shakllar, diagrammalar, sxemalar, jadvallar, xaritalar va shunga o‘xshash yordamchi elementlardan foydalanish bo‘yicha tushuntirishlarning mavjudligi;
3. Taklif qilinayotgan metodikaning yangiligi;
4. Fan, kasb, mavzulararo integratsiyaning mavjudligi;
5. Muayyan pedagogik muammoni hal qilish, o‘quv dasturining ayrim bo‘lim, bob va mavzularni o‘rganishga qaratilganligi;
6. Tanlangan mavzuning dolzarb bo‘lishi, o‘qituvchilarga mavzu yuzasidan aniq ma’lumot berilishi, aniq metodik maqsadga yo‘naltirilganligi;
7. O‘quvchilarga bilim, ko‘nikma, munosabat, qadriyatlar va xulq-atvorni o‘zlashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositalar va materiallar bilan bir qatorda strategiyalar, o‘qitish usullari va metodlari, o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan dastlabki tayyorgarliklarning keltirilishi;
8. O‘quv sohasi, mavzusi va o‘quvchilarni tadqiqotga, kundalik hayotda uchragan turli muammolarga yechim topishga yo‘naltiradigan loyihalar va shunga o‘xshash amaliy tadqiqotlarning mavjudligi;

9. O‘quvchilarga qaratilgan amaliy topshiriqlarni yaratish usullari, o‘yinlar, tanlovlar, viktorinalar uchun namunali savollar, ochiq tadbirlar, sayohat rejalarini tashkil etish usullarining mavjudligi;
10. Zarur tushunchalar lug‘ati kiritilganligi;
11. Material tizimli va tushunarli bayon qilinganligi.

Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyaning shakli va rasmiylashtirilishiga qo‘yiladigan texnik talablar:

Metodik qo‘llanmaning eng kam hajmi 24 bet, Metodik tavsiyaning eng kam hajmi 10 betdan iborat bo‘lishi kerak:

- annotatsiya 4-8 gapdan oshmasligi;
- kalit so‘zlar (indeksatsiya uchun) 6-8 so‘zdan iborat bo‘lishi;
- “Times new roman” shrifti, “Microsoft word” redaktoridan foydalanish;
- betlarni avtomatik tarzda belgilash;
- jadvallar “microcoft word” ning “tablitsa” funksiyasi orqali kiritish;
- matn shrifti 12-14, qatorlar oralig‘i 1 intervalda bo‘lishi;
- ilovalar hajmi cheklanmagan, lekin ular matnga mos kelishi (matnda ularga havolalar berilishi);
- matnda foydalanilgan adabiyotlarga havolalar kvadrat qavs ichida berilishi, foydalanilgan manbalar ro‘yxati kamida 5 nomdan iborat bo‘lishi kerak. Agar qo‘llanma nazariy havolalarni talab qilmasa, faqat amaliy bo‘lsa, unda foydalanilgan manbalar ro‘yxatini taqdim qilmasa bo‘ladi.
- bo‘limlar soni va hajmi cheklanmagan.

Metodik tavsiya va qo'llanma mavzusining dolzarbligi



Tadqiqot mavzusi jamiyat va ilm-fan uchun muhim bo'lishi kerak.

Mavzu innovatsion va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

O'zbekistondagi va dunyodagi ilmiy an'analar hisobga olinishi zarur.

Metodik qo'llanma yoki Metodik tavsiyaning til, uslub, ma'no va ifodasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. O'zbek tilidan to'g'ri foydalanish; tilning ifoda boyligi, ma'no nozikliklariga e'tibor berish;
2. Tildan foydalanishda til va madaniy meros xususiyatlariga ega bo'lgan adabiy mahsulotlar o'rtasidagi bog'liqlikni buzmaydigan noziklikka rioya qilish;
3. Hali tilga kirib ulgurmagan, o'zbekcha ekvivalenti bo'lmagan xorijiy so'zlarga izoh berish;
4. Jargon, haqorat, kamsitish va h.k. bayonotlar kiritilmasligi;
5. O'quvchilarning sinf darajalariga mos til va ularning so'z boyligini boyitish;
6. Tarkibda semantik yoki strukturaviy ifoda buzilishi bo'lmasligi;
7. Tarkibda hech qanday imloviy, tinish va uslubiy xato bo'lmasligi;
8. Asosiy va amaldagi imlo qoidalariga muvofiq bo'lishi;
9. Ifoda tamoyillari (ravonlik, soddalik, ravshanlik, oddiylik) keraksiz ritorika va iboralardan uzoqda va tushunarli bo'lishi;

10. Ifoda keraksiz soʻzlardan, bir xil maʼnoli iboralardan va soʻz takrorlaridan xoli boʻlishi;

11. Matnni tashkil etuvchi birliklar (gap, paragraf va boshqalar) oʻrtasidagi maʼno va ifodaning yaxlitligi taʼminlanishi kerak.

Metodik qoʻllanma yoki Metodik tavsiyaning titul sarlavha sahifasi quyidagicha tuzilishi tavsiya etiladi:

✚ Yuqori qismida ushbu hujjat topshirilgan muassasaning nomi koʻrsatilgan boʻlishi;

✚ Sarlavhaning nomi varaqning oʻrtasida katta harflarda va boʻyoqdor shaklda yozilishi;

✚ Sarlavhadan biroz pastroqda, muallif haqida quyidagi maʼlumotlar koʻrsatilishi kerak: ish joyi, lavozimi va familiyasi, ismi, otasining ismi.

✚ Eng pastki qismida (markazda) shahar va yil koʻrsatilishi kerak, yaʼni ushbu qoʻllanma qayerda va qachon yaratilganligini anglatadi.

NAMUNA:

**TOSHKENT SHAHAR OLMAZOR TUMANI
168-SONLI UMUMIY OʻRTA TAʼLIM MAKTABI**

**FILOLOGIK FANLARNI MASOFAVIY OʻQITISHDA
SUNʼIY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH
METODIKASI**

Abdullayeva Saidaxon Tuychiyevna

168-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabining ona tili va adabiyoti
fani oʻqituvchisi

Toshkent_____yil

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va
maktab ta’limi vazirligi

Toshkent shahar Yunusobod tumani
274 - umumta’lim maktabining Ona tili va
adabiyot fani o‘qituvchisi

Nabiyeva Kamola Kabulovnaning

**“Adabiyot darslarida o‘quvchilarni
qiziqtirish usullari”**


mavzusidagi

METODIK TAVSIYALARI

Toshkent 2024

2

Metodik tavsiya va qo‘llanma uchun ilovalar



MAVZU YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq bajarish uchun tarqatmalar beriladi. Tanlangan mavzu asosida "Hashar asar" usuli yordamida maqola, uslubiy tavsiya yoki qo‘llanma qoralamasini tayyorlash hamda taqdimot qilish. Belgilangan muddat 30 daqiqa.

2- topshiriq. Dars jarayonida amalga oshirgan topshiriqlar yuzasidan har bir tinglovchi “3-2-1” usulida, jadvalli rubrika asosida 2-3 tarqatmani to‘ldirishadi, o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

2-tarqatma

“3-2-1” usulida o‘z-o‘zini baholash

Bugungi mavzudan o‘rgangan uchta asosiy ma’lumot yoki g‘oya

1. _____
2. _____
3. _____

Mavzu bo‘yicha tushunmagan yoki chuqurroq o‘rganishni istagan

2 savol

1. _____
2. _____

Mavzudan eng qiziqarli yoki sizni hayratlantirgan bitta narsa

1. _____

3-tarqatma

Mezonlar	Zo‘r (5)	Yaxshi (4)	O‘rtacha (3)	Yomon (2)
Topshiriqni bajarish				
Tushunarliklik				

3- topshiriq. “Jadvalli rubrika” asosida o‘z-o‘zini baholash.

Dars jarayonida amalga oshirgan topshiriqlar yuzasidan har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

Mulohaza uchun savollar.

1. Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiya yozish osonmi?
2. Sizningcha bu ikki ish qanday farqalanadi?
3. Siz qaysi birini yozmoqchisiz?
4. Metodik qo‘llanma va Metodik tavsiyaning qanday o‘xshash hamda farqli jihatlari mavjud?
5. Sizningcha Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiya nima?
6. Ular o‘qituvchiga nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?
7. Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyaga qo‘yilgan talablar haqida nimalar bilib oldingiz?
8. O‘zingizning yo‘nalishingiz bo‘yicha Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiya ishlab chiqing.

**IV BOB. ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR VOSITASIDA
ONA TILI VA ADABIYOT FANI
O‘QITUVCHILARINING
KREATIVLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**



4.1.O‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda foydalaniladigan asosiy yondashuvlar

Zamonaviy yondashuvlar orqali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish, ta’lim jarayonini yanada samarali qilish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarni malakasini oshirishda yangi metodlar va texnologiyalarni qo‘llash zarurati ortmoqda. Quyida o‘qituvchilarni kasbiy mahoratini oshirish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan yondashuvlar, metodlar va texnologiyalar haqida batafsil tushuntirish keltiramiz.

1. Differensial yondashuv. Differensial yondashuv – o‘qituvchilarning individual xususiyatlariga, ularning intellektual darajasi, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish metodidir. Bu metod orqali o‘qituvchi o‘qituvchilarning turli guruhlari uchun maxsus vazifalar va topshiriqlar tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zamonaviy o‘qituvchi turli o‘quv usullarini va materiallarini qo‘llashga tayyor bo‘lishi kerak.

2. Projekt asosida o‘qitish. Projekt asosida o‘qitish (Project-Based Learning, PBL) – bu o‘qituvchining o‘quvchilarga aniq bir loyiha ustida ishlashni tavsiya qilishi orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar o‘zlari mavzu bo‘yicha mustaqil izlanishlar olib boradilar, guruh ishlari orqali ma’lum bir natijaga erishadilar. Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari bunday metoddan foydalanib, o‘quvchilarga yaratish, fikrlash, tahlil qilish va natija chiqara olish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

3. Kollaborativ yondashuv. Kollaborativ yondashuv o‘qituvchilarni va o‘quvchilarni birgalikda ishlashga, guruh muhokamalarini o‘tkazishga undaydi. Bu metod orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga nafaqat o‘rganilgan materialni o‘zlashtirishni, balki uni boshqalarga tushuntirishni, muhokama qilishni va fikrlarni erkin ifodalashni o‘rgatadi. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Interaktiv texnologiyalarni qo‘llash. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar ta’lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishlari mumkin. Masalan, aqlli taxtalar, multimedialar, ta’lim

ilovalari, onlayn platformalar (Google Classroom, Zoom, Moodle kabi) yordamida o'quvchilarga interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bunday texnologiyalar o'qituvchiga tezda natijalarni ko'rish va tahlil qilish imkonini beradi.

5. Tajriba asosida o'qitish (Learning by doing). Tajriba asosida o'qitish metodi o'quvchilarga o'rganilgan bilimni amalda qo'llash imkonini beradi. Bu yondashuv o'qituvchilarga o'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni o'rgatishdan tashqari, ularni amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. Masalan, adabiyotdan o'qigan asarni muhokama qilish, personajlarning xulq-atvorini tahlil qilish va ular asosida o'z fikrlarini yaratish, yoki adabiy asar yozish orqali yaratuvchanlikni rivojlantirish.

6. Insonning shaxsiy rivojlanishi va metakognitiv yondashuv. Metakognitiv yondashuv, o'quvchilarga o'z o'rganish jarayonlarini nazorat qilish va boshqarishni o'rgatadi. O'qituvchilarni bu usul bilan tanishtirish orqali ularning o'z o'quvchilari bilan yanada samarali ishlashlariga yordam berish mumkin. Bu yondashuv o'qituvchilarga o'z-o'zini baholash, o'quvchilarni o'z faoliyatini tahlil qilishga o'rgatish imkonini beradi.

7. Vaqtni boshqarish va kommunikatsiya texnologiyalari. O'qituvchilar va o'quvchilarning vaqtni samarali boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qituvchilar o'quvchilarga o'quv jarayonini rejalashtirishda yordam beradigan vositalar taklif qilishlari mumkin. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z vazifalarini vaqtida bajarish va o'qish jarayonida samarali muloqot qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

8. Xususiy va professional rivojlanish uchun treninglar. O'qituvchilarni professional ravishda rivojlantirish uchun doimiy treninglar va seminarlar tashkil qilish zarur. Bu treninglar o'qituvchilarga yangi pedagogik texnikalar, metodlar va ta'lim usullarini o'rganishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilarni o'z mahoratini baholash va yangilash uchun o'zaro tajriba almashish imkoniyati yaratish muhimdir.

9. Muntazam pedagogik ma'lumotlarni yangilash. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarini kasbiy mahoratlarini oshirish uchun yangi o'quv materiallarini o'zlashtirish zarur. O'qituvchilarni doimiy ravishda yangi adabiyotlar va ilmiy izlanishlar bilan tanishtirish, zamonaviy pedagogik tadqiqotlar, metodologiyalar haqida ma'lumotlar taqdim etish kerak. Bu pedagoglarning o'z kasblariga bo'lgan qiziqishini va malakasini oshiradi.

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahoratini oshirishda zamonaviy metodlar hamda texnologiyalardan foydalanish juda muhim. O'qituvchilarni turli pedagogik yondashuvlar va yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularga o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borish imkonini beradi. Shu orqali o'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun yanada samarali va innovatsion ta'lim jarayonini yaratish imkoniga ega bo'ladilar.

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirish uchun bir nechta yondashuvlar va metodlar mavjud. Ularning har biri o'qituvchining ijodkorligini oshirishga yordam beradi va o'quvchilarga yanada samarali darslar o'tishga imkon yaratadi.

1. Interaktiv va ko'p qirrali yondashuv. Didaktik o'yinlar va simulyatsiyalar: Darslarni didaktik o'yin elementlari bilan boyitish. Masalan, adabiyot darslarida personajlar, voqealar yoki she'rlar bo'yicha rolli o'yinlar tashkil qilish.

Vaqtni boshqarish: Har bir darsda kichik guruhlarda ishlash va o'quvchilarning fikrlarini tezda qabul qilish. Bu ularning ijodiy fikrlashiga turtki beradi.

2. Tekstlar bilan eksperiment qilish. Ko'p qirrali talqin: O'quvchilarga adabiy asarlardan turli talqinlar yaratishni taklif eting. Masalan, biror hikoyani yoki she'rni zamonaviy holatga yoki o'zining shaxsiy tajribasiga bog'lab yozishni so'rashingiz mumkin.

O'zgarishlar kiritish: Adabiyot darslarida o'qituvchi o'quvchilarga o'qilgan asarlarga o'zgarishlar kiritish va yangi yakunlarni yaratishni taklif etishi mumkin.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Multimedia vositalaridan foydalanish: Darslarda videolar, taqdimotlar, audiokitoblar

yoki interaktiv platformalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va o'qituvchining kreativligini kengaytiradi.

Bloglar va forumlar yaratish: O'qituvchilar o'z shaxsiy bloglarini yaratishlari yoki forumlar tashkil etishlari mumkin, bu yerda ular adabiyotga oid mulohazalar va ijodiy asarlar almashishlari mumkin.

4. Tadqiqot asosidagi yondashuv. Ijodiy tadqiqotlar: O'qituvchilarni ilmiy ishlar yoki ijodiy tadqiqotlar qilishga rag'batlantirish. Masalan, she'riyatning turli janrlari yoki adabiyot tarixidagi noyob hodisalar haqida tadqiqotlar olib borish.

Ijodiy metodikalar. Adabiyot darslarida zamonaviy ta'lim metodikalarni yoki muammoli ta'lim vositalarini qo'llash orqali, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkin.

5. O'z-o'zini baholash va tahlil qilish. O'qituvchilarga o'z ishlarini tahlil qilish va o'quvchilarga nimalar yaxshi ketayotgani yoki nimalar yaxshilanishi kerakligi haqida fikr bildirishi uchun vaqt ajratish zarur. Bu ijodiy ishlashda ularga yordam beradi.

Kreativ yondashuvlar uchun qo'llanmalar. O'qituvchilarga o'z faoliyatini rivojlantirish uchun turli tavsiyalar, kitoblar yoki ma'ruzalar asosida o'quv resurslari yaratish.

6. Hamkorlikda ishlash. O'qituvchilar orasida hamkorlik: Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining o'rtasida ijodiy ishlarni muhokama qilish, yangi dars usullarini joriy etish uchun seminarlar va mashg'ulotlar tashkil etish. Boshqa fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda interdisipliner yondashuvlar yaratish.

Tavsiya va takliflar.

1. **Ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar:** Har bir darsda o'quvchilarga ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan mashqlarni kiritish.

2. **Yangi texnologiyalarni qo'llash:** O'qituvchilarni yangi texnologiyalar va metodikalar bilan tanishtirish, shu jumladan onlayn platformalar orqali ijodiy ishlar yaratishga rag'batlantirish.

3. **O'quvchilarni o'z fikrlarini ifoda etishga undash:** O'quvchilarga o'z fikrlarini erkin va ijodiy tarzda ifoda etish imkoniyatini yaratish.

4. **Tarmoqda o‘qituvchilar bilan aloqa:** O‘qituvchilarni bir-birlaridan o‘rganishga rag‘batlantirish, o‘zaro fikr almashish va yangi g‘oyalarni amalga oshirishda yordam berish. Shu yondashuvlar orqali, ona tili va adabiyot o‘qituvchilari o‘z ijodiy salohiyatlarini maksimal darajada rivojlantirishi mumkin.

4.2. Ona tili va adabiyot darslarida o‘quvchilarning kretivlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlardan amaliy ishlanmalar

“LINGVISTIK AUKSION” METODI



“**Auksion**” - so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, kim-oshdi savdo bozorlari, mahsulotni talabgor xaridorga sotish degan ma‘noni bildiradi. Bunda mahsulot narxi kim o‘zarga baholanadi va eng yuqori narx belgilagan talabgorga sotiladi.

“**Lingvistik auksion**” metodimizda o‘quvchilar uchun auksionga qandaydir sovg‘a qo‘yiladi. Bu sovg‘ani olish uchun esa qandaydir so‘z yoki mavzu tanlanadi. Sovg‘aga talabgor o‘quvchilar ushbu so‘z yordamida gap tuzishlari yoki mavzuga oid atamalarni sanashlari kerak, faqat oldingi tuzilgan gapga qo‘shib yoki oldingi aytilgan atamalarni ham takrorlab, keyin o‘zinikini qo‘shishi kerak.

Bu usul sintaksis va morfologiya, fonetika kabi bo‘limlarini o‘qitishda qulay hisoblanadi. Masalan sintaksis bo‘limida so‘z birikmasi gap, gap bo‘laklari mavzulari o‘tiladi.

Namuna:

Sovg‘a: “5” baho va badiiy asar

Tanlangan so‘z: kitob(ushbu so‘zni boshqa so‘zlar bilan bog‘lab gap tuzing. Har bir o‘quvchi har gal oldingi gapga faqat bitta so‘z qo‘sha oladi)

1-o‘quvchi: kitob xazina

2-o'quvchi: *kitob xazina va do'st*

3-o'quvchi: *badiiy kitoblar xazina va do'st*

4-o'quvchi: *ilmiy, badiiy kitoblar xazina va do'st*

5-o'quvchi: *o'qilgan ilmiy, badiiy kitoblar xazina va do'st va h.k*

Har bitta o'quvchi shu tarzda davom ettiraveradi . Eng ko'p so'zdan foydalanib gap tuzgan va xatosiz aytgan o'quvchi auksion g'olibiga aylanadi.

2-shakl (Fonetika bo'limi tugatilgandan so'ng).

Sovg'a: "5" baho va badiiy asar

Mavzu: Fonetika

1-o'quvchi: *tovush*

1-o'quvchi: *tovush, harf*

1-o'quvchi: *tovush, harf, nutq a'zosi*

1-o'quvchi: *tovush, harf, nutq a'zosi, talaffuz.*

Ushbu shaklda eng ko'p atamani ketma-ketligini buzmasdan sanagan o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilarda nutqiy kompetensiya oshadi va kreativlik rivojlanadi;

Belgilangan bilimlar o'zlashtiriladi;

Eslab qolish qobiliyati rivojlanadi;

Tezkorlik, chaqqonlik kabi sifatlar oshadi. "Lingvistik auksion" usulidan guruh tarzida ham foydalanish mumkin.


"XARIDOR SO'ROQLAR" METODI

Xaridor bu sotuvchining mahsulotini kelishilgan narx asosida sotib oluvchi shaxs hisoblanadi. Bu metoddagi xaridorlarimiz esa so'roq belgisi hisoblanadi. Va bu so'roqlar bitta emas bir nechta bo'lishadi. Har bir xaridor so'rog'imizda savollar yozilgan kartochkalar bor va bu kartochkalar uchun ma'lum miqdordagi ball yoki tangalar belgilangan bo'ladi. O'quvchilar qaysi xaridordan savol olib, unga javob bersa, bergan javobi uchun ballga ega bo'ladi.

O'tkazilish tartibi. Doskaga turli rangdagi beshta so'roq belgisi tushirilgan turli rangdagi qog'ozlar yopishtiriladi. Har bir so'roq orqasida savollar yozilgan kartochkalar bo'ladi. Yashil xaridorda 1 tangali, sariq xaridorda 2 tangali, moviy xaridorda 3 tangali, olovrang xaridorda 4 tangali, qizil xaridorda 5 tangali savollar mavjud. O'quvchilar ularning qay biridan savol olsa va unga to'g'ri javob bersa,

ko‘rsatilgan tangalarga ega bo‘lishadi. Tangalar soniga qarab savollarning qiyinlik darajasi ham ortib boradi. 1 tangali savollar juda oson asosan kun xabarlari, yil nomlari va shu kabi javobi ko‘pchilikka javobi ayon savollar bo‘lsa, 5 tangalilari esa mavzu yuzasidan tuzilgan murakkab savollar bo‘ladi.

Har bir o‘quvchi o‘z bilimidan kelib chiqib savollar tanlaydi, to‘g‘ri javob ayta olsa javobini tanga evaziga xaridorga sotadi. Yig‘ilgan tanga yoki ballarga qarab o‘quvchilar, guruhlar baholanadi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar mavzulardagi eng oson va eng qiyin joylarini ham o‘zlashtirib olishadi.



“REBUSDAN SO‘ZGA” METODI



Keyingi metodimiz “REBUSdan SO‘Zga” deb nomlanadi. Bilamizki, rebus so‘zi surat, harf va shartli belgilar vositasida ifoda etilgan topishmoqqa nisbatan qo‘llaniladi. Odatda, kitoblarda bolalar uchun turli suratlardan

yoki belgilardan iborat topishmoqlar beriladi va uni to‘g‘ri yechsak qandaydir so‘z, maqollar kelib chiqadi. Bizning adabiyot darsliklarimizda yozuvchilar tarjimayi holi bilan birga ular yozgan bir qancha asarlarning nomlari keltiriladi. Asosan 8-9-sinf adabiyot darsliklari shu tarzda tuzilgan. Albatta, ularni barchasini eslab qolish ba’zida qiyichilik tug‘diradi. Lekin ushbu usuldan o‘z o‘rnida

foydalanilsa, bu muammo anchagina yengillashadi. Darslikda berilgan asar nomlaridagi soʻzlarni rasmi yoki belgisi koʻrinishga almashtiramiz va rebus hosil qilamiz. Bu rebusni toʻgʻri bajargan oʻquvchilar baholanadi. Masalan 9-sinfda Omon Matjon tarjimayi holini oʻqitishda ushbu metoddan foydalanish mumkin.

Ushbu metod orqali oʻquvchilar asar nomlarni endi suratlar yordamida eslab qolishadi, shu bilan reboslarni hosil qilish jarayonida aniqlikka ham eʼtibor qilishadi. Bu metodni teskari shaklda guruhlarda ham qoʻllash mumkin. Bu vaziyatda oʻquvchilar oʻzlari rebus ishlab chiqishlari, rebus uchun tayyor suratlardan foydalanishlari yoki texnologiyadan olgan bilimlariga tayanib suratlarni oʻzlari chizishlari ham mumkin. Ushbu metod oʻzida 4K modulida belgilangan guruh boʻlib ishlash, kreativ va kritik fikrlash tamoyillarini mujassamlashtirgan. Bu metoddan nafaqat yozuvchi tarjimayi holini oʻqitishda, balki asarlarni oʻqitishda ham foydalanish mumkin.

Oʻqituvchining pedagogik yondashuvlarini innovatsion va samarali qilishga yoʻnaltirilgan topshiriqlar kerak boʻladi. Quyidagi topshiriqlar adabiyot darsligidagi mavzular misolida ishlab chiqilgan boʻlib, oʻqituvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi:

1. “Adabiy asar tahlili va interpretatsiyasi” topshirigʻi

Maqsad: Oʻqituvchining adabiy asarni tahlil qilishda kreativ yondashuvlarni qoʻllash.

Mavzu: A.Navoiy “Xamsa” (adabiy asarlarning maʼnosi, personajlar va ularning xarakterlari).

Topshiriq: Oʻqituvchi oʻquvchilarga Navoiyning “Xamsa” asaridan bir boʻlimni oʻqib berib, shu boʻlimni tahlil qilishni topshiradi. Bunda oʻquvchilar asardagi personajlarning xarakterlarini, ular orasidagi munosabatlarni va asarning asosiy gʻoyasini izohlaydi. Keyin oʻqituvchi oʻquvchilardan asar yoki personaj haqida ijodiy “Muqobil yakun” yaratishlarini soʻraydi. Misol uchun, oʻquvchilar oʻzlari yozgan yangi yakun orqali personajlarning faoliyatini qanday oʻzgartirishlari mumkinligini tasavvur qilishadi.

“Adabiy janrni yaratish” topshirig‘i

2. Maqsad: O‘qituvchining o‘quvchilarga yangi adabiy janr yaratishda kreativ fikrlashni o‘rgatishi.

Mavzu: L.Tolstoy “Urush va tinchlik” (adabiy janr va uni shakllantirish).

Topshiriq: O‘qituvchi o‘quvchilarga Tolstoyning “Urush va tinchlik” asarini o‘qib, undagi janrlar (epopeya, roman, dramalashgan sahnalar)ni tahlil qilishni so‘raydi. Keyin o‘quvchilardan shu asar yoki o‘zlari tasavvur qilgan mavzu asosida yangi adabiy janr yaratishlarini talab qiladi. Masalan, o‘quvchilar o‘zlari yozgan romanni qaysi janrda bo‘lishini (masalan, tarixiy roman, psixologik roman) va nima uchun bu janrni tanlashganini izohlashlari kerak.

4. “Adabiy personajning o‘zgarishi” topshirig‘i

Maqsad: O‘qituvchining o‘quvchilarni adabiy personajlarning o‘zgarishini yaratishga va ularni boshqacha kontekstda ko‘rsatishga yo‘naltirish.

Mavzu: Sh.A.Ismoilov “Qalpoqni topgan bola” (personajlarning o‘zgarishi va taraqqiyoti).

Topshiriq: O‘qituvchi o‘quvchilarga Ismoilovning “Qalpoqni topgan bola” asarini o‘qib, undagi bosh qahramonning hayotidagi o‘zgarishlarni tahlil qilishni so‘raydi. Keyin o‘quvchilardan ushbu personajni boshqa davrga yoki boshqa sharoitga qo‘shish va qanday o‘zgarishlar yuzaga kelishini tasavvur qilishni talab qiladi. Masalan, o‘quvchilar personajni bugungi kunda qanday yashayotganini va uning o‘zgarishlarini, ijtimoiy muammolar bilan yuzlashishini yozishlari mumkin.

6. “Adabiy asar asosida ijtimoiy masalani ko‘tarish” topshirig‘i

Maqsad: To‘garak mashg‘ulotlarida qo‘shimcha ravishda o‘qituvchining o‘quvchilarni adabiy asarlardan ijtimoiy masalalarni ajratishga va ularni ijodiy yondashuvda talqin qilishga undash.

Mavzu: Ch. Dickens “Kichik Dorrit” (ixtisoslashgan jamiyatdagi muammolar).

Topshiriq: O‘qituvchi o‘quvchilarga Dickensning “Kichik Dorrit” asaridagi ijtimoiy muammolarni o‘qib, o‘quvchilarni shu asardan bugungi

ijtimoiy masalalarga qanday bog‘lash mumkinligini tushuntirishga undaydi. O‘quvchilardan adabiy asar asosida yozgan insho yoki maqola shaklida ijtimoiy masalalarni ko‘tarish va ular haqida ijodiy fikr bildirish so‘raladi.

7. “Adabiy dialog yaratish” topshirig‘i

Maqsad: O‘qituvchining o‘quvchilarni adabiy asarlar asosida yangi dialoglarni yaratishga va o‘z tasavvurlarini izhor qilishga undash.

Mavzu: “Sahroda” (o‘zgacha munosabatlar va dialoglar).

Topshiriq: O‘qituvchi o‘quvchilarga “Sahroda” asaridan bir dialogni tanlab olib, uni ijodiy tarzda o‘zgartirishni taklif qiladi. O‘quvchilar, diqqat bilan personajlarning o‘zaro aloqalarini tahlil qilib, dialogni zamonaviy kontekstda yoki boshqa asarda ko‘rsatilgan holatga moslab yozishlari kerak. O‘quvchilar turli uslublarda, masalan, zamonaviy ijtimoiy masalalarga moslab yozilgan yangi dialoglar yaratishlari mumkin.

Bu topshiriqlar o‘qituvchilarning adabiyot darslarida kreativ yondashuvlar ishlab chiqish va o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga jalb qilishga yordam beradi. O‘quvchilarni adabiy asarlar orqali fikrlarini ifodalashga va yangi yondashuvlarni yaratishga undashadi.

“XOTIRA DAFTARCHASI” USULI


Xotira daftari so‘zini eshitishimiz bilan bolalikda yuritadigan, eng qiziq voqealar yoki har kungi faoliyatimizni yozib boradigan kundaligimizni ko‘z oldimizga keltiramiz va bu daftarni har varaqlaganimizda xotiralarimiz butun holda bir-bir xayolotimizda gavdalanadi. Bu usulda biz xotira daftarining shu xususiyatlarini fanga moslagan holda olib kirganmiz.

Adabiyot darslarida nafaqat yozuvchi tarjimayi holi, balki badiiy asar matni bilan ham ishlaymiz. Aynan shu badiiy asarni o‘qitishda undagi obrazlar, badiiy detallar, obrazlarning o‘ziga xosligi, asarda ilgari surilgan g‘oyalarni tahlil etamiz va shu bilimlarni o‘quvchiga ham o‘rgatamiz, ularning fikrlarini umumlashtirib, xulosalaymiz. Lekin dars jarayonida hamma o‘quvchidan alohida-alohida asar tahlilini,

xulosalarini so‘rab chiqa olmaymiz. Aynan ushbu usul har bir o‘quvchi bilan individual aloqani ta‘minlashga, ularni asar voqealari va obrazlarini tahlil qilishga qanday yondashganini bilishimizga ko‘mak beradi.

O‘tkazilish tartibi:

Ushbu metodda asosiy detal kichik daftar ko‘rinishida bo‘lib, har bir varaqda asar yuzasidan turli xildagi topshiriqlar, jadvallar, savollar jamlanadi. Bu topshiriqlar har bir asardan kelib chiqib tuziladi, faqat ular shu asarni o‘quvchi xotirasida bir umrga qolishiga yordam berishi kerak. Quyida 8-sinf adabiyot darsligidagi “Chinor” romani uchun ishlangan xotira daftarchasi bilan tanishasiz.



“UCHAR TO‘P” METODI

Dars jarayonlarida o‘tilgan mavzularni takrorlash va yangi mavzuni mustahkamlash qismlarida foydalaniladi. Metoddan

foydalanish uchun yumshoq to‘p kerak bo‘ladi. To‘pni o‘quvchilarga uzatish jarayonidan, o‘quvchi yoshidan va mavzulardan kelib chiqqan holda, raqamlar aytiladi. 1 dan 5-6-7-8-9-10 tagacha. To‘pni ilib olgan o‘quvchi esa mavzuga oid shuncha ma’lumot, atamalar, turli so‘zlarni aytishi mumkin. Masalan, bir o‘quvchiga 2 raqamini aytib to‘pni uzatdingiz, o‘quvchingiz mavzu haqida, siz bergan topshiriqqa qarab, 2 ta ma’lumot yoki atama aytishi kerak. Agar 5 raqamini aytib to‘pni uzatdingiz, o‘quvchingiz mavzu haqida 5 ta ma’lumot yoki atama aytishi kerak. Metoddan foydalanish jarayonida o‘quvchilar doim diqqatlarini jamlab o‘tirishlari lozim. Chunki to‘satdan to‘p kelib shikastlashi mumkin. Bu metod og‘zaki nutqni rivojlantiradi.

1. Said Ahmad (taxallusi; asl ism-sharifi Husanxo‘jayev Saidahmad)
2. (1920.10.6, Toshkent - 1920) - O‘zbekiston xalq yozuvchisi
3. (1980). O‘zbekiston Qahramoni (1999). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1968).
4. Toshkent rassomlik bilim yurtida, Toshkent pedagogika institutida o‘qigan (1940-43).

“MILLIONER” METODI

Bugungi kun o‘quvchisini dars jarayonlariga qiziqtirish murakkab vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Ular telefon, kompyuter bilan bog‘liq jarayonlarga ko‘proq qiziqish bildiradilar. Shuning uchun ham o‘quvchilarga telefon va kompyuterdan qiziqroq bir jarayonni taqdim qilish lozim. “Millioner” metodi aynan rag‘bat va pul bilan bog‘liq metod hisoblanadi va har qanday yoshdagi o‘quvchini dars jarayonlariga jalb qila oladi. Ushbu metoddan bir nechta usullarda foydalanish mumkin.

1. Qog‘oz pul ko‘rinishidagi kartochkalardan foydalanib, o‘quvchilarni rag‘batlantirish. O‘quvchilarning siz bergan topshiriqqa javobiga qarab pul taqdim qiling.
2. Qog‘oz pul ko‘rinishidagi kartochkalarning orqa qismiga mavzuga oid turli topshiriqlar yozing.
3. Haftalik yoki choraklik reytingni aniqlash jarayonida ham pul ko‘rinishidagi kartochkalardan foydalanish natijali usul hisoblanadi.

1. Said Ahmad “Ufq” trilogiyasidagi Tursunboy sevgilisining ismi? J: Zebi
 2. Said Ahmad “Ufq” trilogiyasida Tursunboy to‘qayda nimani kutib yashardi? J: Onasi keltiradigan ovqatni
 3. Said Ahmad “Ufq” trilogiyasidagi Rais buvaning qahramon bo‘lgan o‘g‘li? J: Azizxon
 4. Said Ahmad “Ufq” trilogiyasidagi Tursunboy onasining ismi? J: Jannat xola
 5. Qaysi asar qahramonlari o‘z qo‘rqoqliklari uchun onalarining qiynalib vafot etishiga sababchi bo‘lgan?
- 1.Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi 2. Asqad Muxtorning “Chinor” romani

“KEYS-STADI” METODI

“Keys-stadi” – inglizcha so‘z bo‘lib, (**case** – aniq vaziyat, hodisa; **“study”**– o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who?), Qachon? (When?), Qayerda? (Where?), Nima uchun? (Why?), Qanday? Qanaqa? (How?), Nima-natija? (What?).

Metodni amalga oshirish tartibi

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	-yakka tartibdagi audio-vizual ish; -keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); -axborotni umumlashtirish; -axborot tahlili; -muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	-individual va guruhda ishlash; -muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; -asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	-individual va guruhda ishlash; -muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; -har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; -muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot	-yakka va guruhda ishlash; -muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; -ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; -yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.

Metodni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablari belgilanadi. (yakka va kichik guruhlarda).

O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirish metodikasi.

Zamonaviy psixologik-pedagogik fanlar erishgan yutuqlarga binoan istalgan o‘quv jarayonini bir-biriga bog‘liq, 3 qismdan iborat deb hisoblaydi:

1. Motivlar (M)
2. O‘quvchining o‘zlashtirish faoliyati (O‘F)
3. O‘zlashtirish jarayonini boshqarish (B).

O‘quvchining o‘zlashtirish jarayonini boshqarish muallim yoki texnik vosita yordamida amalga oshiriladi. Demak, o‘quv jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin:

$O'J=M+O'F+B$.

O'quv jarayonining qismlaridan har birida (M,O'F,B) qanday maqsad nazarga tutilganligiga qarab ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishning turli metodlari hosil bo'ladi. Bunday metodlar juda ko'p va bular ichidan qay birini tanlash ma'lum mezonlar asosida amalga oshiriladi. Shuni esda tutish lozimki, ta'limning maqsadlari va o'quv jarayoni bir-biriga mos bo'lishi kerak, ya'ni har bir maqsadga ma'lum bir o'quv mashg'ulotida erisha olish mumkin va har bir jarayonidan ko'zlanadigan maqsad aniq va ravshan bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiyalarning bu qismlarini qo'llayotganda tabiatga moslik va o'quv jarayonini jadallashtirish tamoyillariga rioya etiladi.

Tabiatga moslik tamoyili ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchining bilimi, o'zlashtirish qobiliyati va aqliy kuchlari o'sishiga ko'proq mos kelishini nazarda tutadi. O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyili-didaktik vazifani kam vaqt sarflab yuqoriroq darajada ro'yobga chiqarishni, ya'ni, kam vaqt va kam kuch sarflab, ko'proq samara olishni nazarda tutadi. O'quv jarayonini jadallashtirish tamoyilining ko'rsatkichi bu o'quvchining bilim o'zlashtirish tezligi hisoblanadi. O'quv jarayoni qismlarini har birini alohida holda ko'rib chiqamiz.

O'qitish motivlari – "**motiv**" tushunchasi ehtiyoj, intilish, mayl, qiziqish kabi ma'nolarini anglatadi. Motiv - kishini biror ish harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. Bunda o'qituvchilar o'quvchilarda o'qishga motivlar hosil qilishga intilishlari, o'quv jarayonida uni hisobga olib motivni o'stirishlari va boshqarishlari zarur.

Biror ish-faoliyatiga moyillik ya'ni motivlarni hosil qilish bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib hisoblanadi. Motivlarni shakllantirish masalasi esa individual-shaxsiy xususiyatga ega bo'lib, ta'limning maqsadi, vaziyati bilan o'qishni tashkil etish shakllari, usullari mutanosibligini taqozo etadi.

Motiv hosil qilishning oddiy usullaridan biri auditoriyadagi mashg'ulotni yoki darslikdagi matnning qiziqarliligidir. Motiv hosil qilishning yana bir usuli mashg'ulot jarayonida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish.

Bunga o'quv jarayonida bilish vazifalarini qulay qo'ya olish orqali erishiladi. O'quvchining o'zlashtirish faoliyati - bilim olish uchun motiv

hosil qilish bilan birga o'quvchi o'quv materialini o'zlashtirishga imkon beruvchi faoliyatni ya'ni o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirishi lozim.

O'zlashtirish faoliyati o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib ushbu faoliyat o'quv materialini tushunishga imkon beradi. O'quv bilish ya'ni o'zlashtirish faoliyatining turli darajalari mavjud ular ichidan bir nechtasini ko'rib chiqamiz:

1-daraja. Reproduktiv faoliyat an'anaviy o'zlashtirish tipi bo'lib, unda o'quvchining vazifasi o'qituvchining so'zlarini diqqat bilan tinglash yoki darslik bilan ishlashdan, o'rganilayotgan obyektlar hodisalarni kuzatishdan ko'rsatmaga binoan biror amaliy harakatni tajriba tariqasida bajarishdan iborat bo'ladi.

2-daraja. Bu darajada o'quvchi o'quv materialini qayta ifodalay olishi, tanqidiy mushohada yuritishi, vazifani bajarish variantlaridan ratsional va eng qulay usulni tanlay bilishi kerak. O'zlashtirish jarayonining bu tipida o'quvchiga o'quv materialidan konspekt, referat tayyorlash, munozaralarda qatnashib so'zga chiqish, ma'ruzalar qilish, barcha o'quv elementlariga doir bo'lgan masalalarni yechish, didaktik o'yinlarida ishtirok etish tavsiya etiladi.

3-daraja. Bu tipda o'quvchi o'quv materialini yuqorida keltirilgan ikki tip darajasida o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Bu tipda o'quvchidan o'zlashtirish faoliyatining izlanish (evristik) harakatlari bajarilishini talab etadigan muammoli o'qitish o'yinlari, biror ishni real loyihalashtirib bajarish kabi didaktik vazifalarni bajarishi lozim.

4-daraja. Ta'lim maqsadi yuqori darajada o'zlashtirishni ko'zlaganda masalan, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda o'quv jarayoni tadqiqot natijalari va metodikasini tahlil etish bo'yicha munozaralar olib borish, muammoli vazifalarni qo'ya bilish, individual va jamoa bo'lib tadqiqot ishlarini bajarish orqali amalga oshiriladi.

O'zlashtirish jarayonini boshqarish - tinglovchida ta'lim maqsadiga mos keladigan o'qish motivlari mavjudligi va o'zlashtirish jarayonini to'g'ri tashkil etilganligi o'quv jarayonidan kutilayotgan natijani kafolatlay olmaydi. Buning uchun ta'lim jarayonini boshqarish usuli ham to'g'ri tanlanishi lozim. O'zlashtirish faoliyatini boshqarishning usullaridan biri bu o'zlashtirilgan materiallarni testlar yordamida vaqti-vaqti bilan tekshirib borish usuli. Bunda har bir yangi

mavzuni o‘zlashtirishda nazorat vaqti va nazorat usuli oldindan belgilanishi ya’ni o‘quv jarayoni standartlashtirilishi lozim.

Shuni nazarda tutish kerakki, ta’lim jarayonlarining barchasi uchun ish harakatlarni o‘zlashtirishning yagona eng yaxshi usuli mavjud emas, chunki kishilarning aqliy qobiliyat va imkoniyatlari xilma-xildir. Tajriba shuni ko‘rsatdiki, kishi hatto ta’lim yomon tashkil etilgan sharoitlarda ham zarur axborotlarni bilib, o‘zlashtirib olishi yoki aksincha ta’lim jarayoni yaxshi tashkil etilgan sharoitlarda kerakli axborotlarni o‘zlashtira olmasligi mumkin.

O‘quv faoliyati o‘zlashtirishning turli nazariyalari va farazlariga binoan o‘tiladigan va izchil mashqlar tizimidan iborat bo‘lgan, ya’ni bo‘lak-bo‘lak o‘zlashtirish harakatlarining izchilligi bajarilish algoritmini tashkil etadi. Bajarilish algoritmining har bir qismi ta’lim jarayonida o‘zlashtirish darajalari bo‘yicha izchil harakatlardir. Harakatning har bir qadami va shu qadamning mazmuni o‘zlashtirish jarayoni asoslanadigan nazariyaga bog‘liq. O‘zlashtirish nazariyasini tanlash usuli va sifat mezonini o‘qituvchining pedagogik faoliyati uchun mo‘ljallab bo‘lib, uning pedagogik texnologiyasini tavsiflaydi.

“Keys-stadi” metodini amalga oshirish jadvali


Muammo turi	Kelib chiqish sabablari	Hal etish yo‘llari

Mulohaza uchun savollar.


1. O‘qituvchilarning kreativligini namoyon etuvchi qanday yondashuvlar mavjud?
2. Dars jarayonida qaysi kreativ metodlardan foydalanasiz?
3. O‘quvchilarning kreativligini oshirishda qanday amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin?

OMMALASHTIRISH.UZ ELEKTRON PLATFORMASIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

1. Istagan veb-brauzerga tizim manzili **http://ommalashtirish.uz/** ni kiriting hamda ommalashtirish ta’lim platformasining asosiy oynasidagi ko‘k rangli **“ro‘yxatdan o‘tish”** tugmasini bosib ro‘yxatdan o‘ting.



Ro‘yxatdan o‘tish uchun pasportingizdagi JSHSHIR (PINFL) - oxirgi ikkita raqamdan oldingi 14 ta raqam va telefon raqamingizni kiriting.



erp.maktab.uz siz ro'yhatdan o'tish

Ro'yhatdan o'tish uchun ma'lumotlarni to'ldiring

JSHSHIR

Telefon raqam

Ism

Familiya

Sharif

Tug'ilgan sanangiz

Jins

Viloyat

Tuman/Shahar


Maktab

Parol

8 yoki undan ko'p belgilar bilan foydalaning, harflar, raqamlar va belgilar aralashmasi bilan.

Parolni qayta kiriting

2. Sizga 5 ta raqamdan iborat sms kod yuboriladi. Shu kod orqali tizimga kirishingiz mumkin. Tiklash oynasi orqali esa platformadan foydalanish uchun kodni tiklab olish mumkin. Shuningdek, doimiy foydalanish uchun ERP tizimida mavjud login va parolni kiritib ham platformaga metodik mahsulotlarni joylashtirishingiz mumkin.



Telefon raqamni tasdiqlash

*****4090 Raqamiga Telegram bot orqali yuborilgan 6 xonali tasdiqlash kodini kiring

Tasdiqlash Ortga

3. Shundan so‘ng siz quyidagi bo‘limlarni to‘ldirish orqali metodik mahsulotni platformaga joylashtirishingiz mumkin.

4. **Muallif (I.F.SH)** – metodik mahsulot muallifining to‘liq ismi, familyasi va sharifi.

5. **Mobil telefon** – muallifning mobil telefon raqami.

6. **Fan** – o‘qituvchi qaysi fan mutaxassisligiga ega bo‘lsa, shu fanga doir metodik mahsulot jo‘natishi maqsadga muvofiq.

7. **Sinf** – o‘qituvchi o‘zi dars berayotgan sinfnigina belgilay oladi.

8. **Mavzu** – metodik mahsulot mavzusi.

9. **Turi** – metodik mahsulot turi: (o‘quv qo‘llanma, dars ishlanma, video ma’ruza). Mahsulot formati aniq ko‘rsatilishi lozim.

10. **Faylni yuklash** – bu yerga fayl yuklanadi. Tizim qanday fayllarni qabul qilishi mumkinligi faylni yuklash bo‘limida batafsil

ko'rsatilgan. Bir o'qituvchi bir mavsumda faqat bir dona metodik ish yubora oladi.

11. Pedagogik kengash qarori - bu pedagogik kengash sizning ishingizni ommalashtirishga tavsiya etgani haqidagi qaror. Siz bu qaror ko'chirmasining nusxasini ushbu bo'limga yuklaysiz.

Agarda, sizning ishlaringiz ketma-ket uch yil davomida tuman yoki viloyatda ommalashtirilgan bo'lsa va aynan o'sha ishingizni qayta ommalashtirmoqchi bo'lsangiz, unda pedagogik kengash qarori o'rniga tuman yoki viloyat ommalashtirishirilgani haqidagi qarorni yuklasangiz ham bo'ladi. Lekin mutlaqo yangi ish yuboryotgan bo'lsangiz albatta pedagogik kengashning ijobiy xulosasi kerak bo'ladi.

12. Izoh – o'qituvchi platformaga joylashtirayotgan metodik mahsulotining tasnifini yozib qoldirishi mumkin.

13. Men roziman – bu yerga rozilik belgisini qo'yish bilan siz yuborayotgan ishingiz aynan o'zingizning ijodiy ish o'zingizniki ekanini tasdiqlaysiz. Agar sizning ishingiz ko'chirilgan yoki boshqa bir o'qituvchiga tegishli bo'lsa "Plagiat" bo'limi orqali ushbu ish ko'chirilgan ishligi haqida ma'lumot ko'rinadi. Shunda ko'chirgan o'qituvchiga nisbatan qonuniy chora ko'rish haqida maktab ma'muriyatiga tegishli xat yuboriladi va chora ko'riladi.

"Mening ishlarim" oynasi. Bu yerda siz ommalashtirish uchun joylagan metodik mahsulotingizni doimiy ravishda kuzatib turishingiz mumkin.

Metodik mahsulot quyidagi 3 formatdan birida bo'lishi kerak.

O'quv metodik adabiyot – metodik qo'llanma, tavsiyanoma va boshqa metodik mahsulotlarni **doc, docx, pdf** formatlarida taqdim etishingiz mumkin.



Dars ishlanma – o'qituvchi dars ishlanmalarini **ppt, pptx** formatlarida tizimga yuklashi mumkin.

Video material – talabgor dars, to'garak yoki o'zi tushuntirgan biror metodik ishni hajmi 300 mb dan, davomiyligi 7 minutdan oshmagan video (**mp4, mpeg, avi, flv, mov, wmv, mpg, mkv, webm**) formatida yuklashi mumkin.

“Ommalashtirish” oynasida siz boshqa hududdagi hamkasblaringiz jo‘natayotgan metodik mahsulotni kuzatib borishingiz mumkin. Shuningdek, ushbu menyu elementida kerakli metodik mahsulotlarni filtrlash imkoniyati ham taqdim qilingan.

Metodik mahsulotni jo‘natishning barcha bosqichlari yakunlangach, baholash jarayoni boshlanadi.

Siz o‘z faningiz doirasidagi ishlarni 1 baldan 10 balgacha baholash imkoniga ega bo‘lasiz. Baholash jarayoni 1 oy davom etadi. Har bir fandan eng yuqori bal to‘plagan 100 ta eng yaxshi ish ekspertlarga jo‘natiladi. Ular ushbu 100 ta ishni baholab respublika, viloyat, tuman miqyosida ommalashgan ishlarga saralaydi. Shundan keyin yakuniy natijalar ommalashtirish.uz platformasida ko‘rinadi va ishi ommalashgan o‘qituvchilar o‘z sertifikatini yuklab olishlari mumkin bo‘ladi.



XULOSA

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchilardan chuqur bilim, zamonaviy ko'nikmalar va innovatsion texnologiyalar bilan ishlashni talab etadi.

Ushbu o'quv qo'llanma maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi barcha pedagog xodimlar, tadqiqotchilar va ta'lim sohasi mutaxassislari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'qitishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish, loyihaviy va tadqiqot faoliyatlarini rivojlantirish hamda ilg'or ish tajribalaridan oqilona foydalangan holda o'qituvchilarga o'zining yo'nalishi bo'yicha metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya yaratish, uni ommalashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Qo'llanma pedagoglar uchun nafaqat bilim manbai, balki amaliy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, metodik qo'llanma va metodik tavsiya yaratishga qo'yiladigan umumiy talablar, ommalashtirishga tavsiya etilgan ilg'or ish tajribalar uchun metodik ishlanmalar tayyorlash, Metodik qo'llanma va Metodik tavsiyaning o'xshash hamda farqli jihatlari, Respublika miqyosida ommalashtirilgan ishlardan namunalar bilan tanishtirish, ommalashtirish maqsadida tayyorlanadigan Metodik qo'llanma va Metodik tavsiya ishlab chiqish uchun vazifalar taqdim etishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ommalashtirishning turlari, yo'nalishlari hamda o'tkazilish bosqichlari yuzasidan ma'lumotlar taqdim etilgan.

Ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil ilmiy izlanishlariga, loyihaviy va tadqiqotchilik faoliyatlariga yo'naltirilgan topshiriqlar ularning tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Qo'llanma mazmunida o'quvchilarda XXI asrga xos kreativlik, muloqot, hamkorlik, global qarash va axborot savodxonligi kabi kompetensiyalarni shakllantirish usullari aniq va lo'nda tarzda keltirilgan.

Yana bir muhim jihati – o'qituvchilarning kasbiy va metodik kompetentligini oshirish maqsadida bugungi kunda qo'llanilayotgan xorijiy tajribalar, 4K tizimi, 5E modeli, 3C+1E modeli, "Lesson Study" metodikasi kabi pedagogik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasiga,

ularning kundalik hayotdagi ahamiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan.

Metodik qo'llanma va Metodik tavsiya ishlab chiqish uchun tayyorgarlik bosqichi, metodik qo'llanma va metodik tavsiyaga qo'yiladigan umumiy talablar, baholash mezonlari, maktab, tuman, Shahar hamda Respublika bosqichida ommalashtirilgan ilg'or ish tajribalaridan namumnalar, pedagoglarning kasbiy hamda metodik kompetentligini oshiruvchi interfaol topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, "Tadqiq qilamiz", "O'ylab ko'ring", "Ilm-fan kundalik hayotda" kabi ruknlar o'quvchilarni faol va ijodiy o'rganishga undaydi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalardan samarali foydalanish o'qituvchining rivojlanish sur'atini yanada qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 17-martdagi "O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 89-son buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini taminlash maqsadida yaratilgan bo'lib, zamonaviy ta'limining barcha talablari, metodik yondashuvlari va texnologik yangiliklarini qamrab olgan holda, o'qituvchining pedagogik mahoratini yuksaltirishga, ilg'or ish tajribalaridan unumli foydalana olishga, egallagan bilimlarini real hayotda qo'llay olishga, ommalashtirishga qo'yiladigan talablar doirasida metodik qo'llanma hamda metodik tavsiya yaratish ko'nikmalarini shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 17-martdagi “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 89-son buyrug‘i.
2. Rahimov Sh., Madjitov A., O‘qitish materiallari to‘plamlarini ishlab chiqish. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2023 y.
3. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.
4. Tilavova M. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. - Toshkent. Muharrir nashriyoti. 2021.-268 b
5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi. Respublika miqyosida ommalashtirilgan ishlar. Jurnal. Toshkent, 2024 y.
6. Tashpulatov S.Sh., Botirova R.Kh., Cherunova I.V. Ilmiy maqola yozish asoslari. ilmiy maqola qanday yoziladi? Toshkent, 2017 y.
7. Muslimov N.A.va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
8. Karimova M.O., Rafikova D.K., Baydjanov B.X. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Farg‘ona, 2021.
9. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh. Kasbiy Kompetentlik. Darslik. Toshkent-2022.
10. Muradova F. The role of the lesson study approach in the professional development of teachers of the school of general secondary education. International Journal of Pedagogics. Vol.05 Issue03 2025. p. 246-248
11. Muradova F. Use Of "Lesson Study" Methods In The Primary School Of General Secondary Education Institutions. Pedagogical Sciences And Teaching Methods: a collection scientific works of the International scientific conference (17 February, 2025) - Copenhagen:2025. Part 42, page 112-116.

12. Imamova Sh.M. A Simulation trainer's educational competence in the process of forming students' professional competence// International Journal On Integrated Education Volume 6, Issue 9, Sep-2023 P.75-77.

13. Imomova Sh.M. Matematik tizimlarda talabalarning kasbiy kompetentligini imitasion-trenajyor asosida rivojlantirishning pedagogik shartlari // Ilm-fan va texnologiyalar №2(1), 2023, C. 19-23b.

14. Imomova Sh.M. Computer simulators in science//international conference bridge to science: research works September 10- December 15, 2023. San Francisco, California, USA

15. Aslanova D.X., Salamov F.F., Xalikov Y.M.. Kasbiy kompetentlik. O‘quv Qo‘llanma. Samarqand -2020. 46-65-b.

16. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi // Monografiya. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2013.3.

17. Mannonov J.A. Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari: ped.f.f.doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –T.: 2020. –52b.

18. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. (PhD). –T.:, 2019.–180 b.

Elektron ta’lim resurslari

19. <https://ommalashtirish.uz/>

20. <https://onlinedu.uz/>

21. <https://avloniy.uz/uz>

22. <https://www.oecd.org/>

23. <http://www.gov.uz>

24. <https://www.uzedu.uz/>

25. <https://www.bimm.uz/ru>

ILOVALAR

Ona tili fanidan 2-sinfda “Jarangli va jarangsiz undoshlar” mavzusidagi 1 soatlik dars ishlanmasi

Sinf: 2

Sana:

Fan: Ona tili

Mavzu: Jarangli va jarangsiz undoshlar

Fan o‘qituvchisi: G‘ayratova Nodira Abdug‘affor qizi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlar haqida ma’lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: Chiroyli yozish, to‘g‘ri talaffuz qoidalarini o‘rganish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: Ko‘rgazmali-amaliy.

Dars jihozlari: Mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, mavzuga oid tarqatma materiallar, darslik, slayd.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

Sinfga kirgach, o‘quvchilar bilan salomlashiladi. O‘quvchilarning darsga tayyorgarligi nazoratdan o‘tkaziladi. O‘quvchilarning diqqati darsga jalb etiladi. Ob-havo haqida ma’lumot va butun dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklar haqida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

II. Uyga vazifani tekshirish.

Uyga berilgan vazifalar baholash va tekshirish uchun yig‘ib olinadi. Ikkinchi daftarlari tarqatiladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘quvchilarga bugungi mavzu **Jarangli va jarangsiz undoshlar** haqida tushuntiriladi. Bunda ko‘rgazmali qurollar, elektron doskadan foydalaniladi. Qoidalar tushuntiriladi. Jarangi va jarangsiz undoshlar haqidagi videorolik qo‘yib beriladi.




1. Qaysi tovushlar talaffuz qilinganda ham ovoz, ham shovqin eshitilyapti?

2. Qaysi tovushlar talaffuz qilinganda faqat shovqin eshitilyapti?


Qoidani tushunib oling.

O'zbek tilida *jarangli* va *jarangsiz* undosh tovushlar bor. Jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda *shovqin* va *ovoz* eshitiladi, jarangsiz undosh tovushlarda *faqat shovqin* eshitiladi.



Qoidani tushunib oling.

O'pkadan chiqayotgan havo oqimining tovush paychasini tebratishi *ovozni* hosil qiladi. O'pkadan chiqayotgan havo oqimining til, tish yoki lab to'sig'iga uchrashi *shovqinni* hosil qiladi.



Qoidani tushunib oling.

O'zbek tilida *jarangli* va *jarangsiz* undosh tovushlar bor. Jarangli undosh tovushlar talaffuz qilinganda *shovqin* va *ovo*z eshitiladi, jarangsiz undosh tovushlarda *faqat shovqin* eshitiladi.



Jarangli undoshlar		Jarangsiz undoshlar	
b	d	p	
g	v	t	
z	g'	k	
j	j	f	x
l	m	s	
n	r	x	
y	ng	ch	
		sh	
		q	
		h	sh



3-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ustun shaklda yozing.

Abu Ali ibn Sino 980-yili Buxoro shahri yaqinidagi **Afshona** qishlog'ida tug'ilgan. Olimning "Tib qonunlari" **kitobi** dunyoga **mashhur**. Ibn Sino Yevropada **Avitsenna** nomi bilan mashhur bo'lgan.



3-mashqni birgalikda bajaramiz.


Jarangli undoshlar: n, b, m, r, v.

Jarangsiz undoshlar: f, sh, h, t, s.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

“Juftini top” o‘yini.

O‘quvchilarga harflar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar bu qaysi undosh ekani va uning jarangli yoki jarangsiz jufti qaysi ekanini aytadilar. Masalan: b-jarabli undosh, p-uning jarangsiz jufti



Uyga vazifa berish.

Uyga vazifani bajarishda kitoblar, internet, kattalarning yordamidan foydalanish mumkinligi aytiladi.



Kattalardan so‘rab, buyuk allomalar haqida ma‘lumot yozib keling.

V. Darsni yakunlash:

O‘quvchilarning darsdagi faolliklari, vazifalarni bajarganliklariga qarab ularga baholar qo‘yiladi va rag‘batlantiriladi.

Ona tili fanidan 3-sinfda “So‘z yasovchi qo‘shimchalar” mavzusidagi 1 soatlik dars ishlanmasi

Sinf: 3

Fan: Ona tili

Mavzu: So‘z yasovchi qo‘shimchalar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarni so‘z yasovchi qo‘shimchalar bilan tanishtirish, bilimlarini oshiri va mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni diqqatini jamlash, so‘z erkinligi, fikr erkinligini tarbiyalash va qo‘llab-quvvatlash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarning topqirlik, chaqqonlik, chiroyli yozuv malakalarini yanada rivojlantirish.

Dars uslubi: aralash dars

Dars usuli: Ko‘rgazmali-amaliy

Dars tipi: suhbat, bahs, guruhlarda ishlash, xotira mashqi

Dars jihozlari: Mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, mavzuga oid tarqatma materiallar, darslik, kompyuter, proyektor, slaydlar

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

Sinfga kiringach, o‘quvchilar bilan salomlashiladi. O‘quvchilarning darsga tayyorligi nazoratdan o‘tkaziladi. O‘quvchilarning diqqati darsga jalb etiladi. Ob-havo haqida ma’lumot va butun dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklar haqida qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash: asos va asosdosh so‘zlar mavzusi bo‘yicha blits savollar tarqatiladi.

Asosdosh so‘zlar
deb nimaga
aytiladi?

Asosdosh
so‘zlarga misollar
keltiring.

Asos qanday
belgilanadi?

Qaysi so‘z ortiqcha
Yog‘siz, yog‘li,
yog‘la, yog‘och

Asosini toping.
Do‘st, do‘tlik,
do‘stona

Berilgan so‘zlarga
asosdosh so‘zlar toping.
Odob, baliq, Vatan

Yangi mavzu bayoni.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar

Proyektr yordamida 164-mashq slaydi oʻquvchilarga koʻrsatiladi.

164-mashq. Oʻqing. Soʻzlarning umumiy qismlarini toping.

Gʻalla - gʻallakor

Baliq – baliqchi

Nur – nurli Vatan – vatandosh

Soz – sozla Tuz – tuzla

Ular nima uchun maʼno jihatidan farqlanyapti?

Mashq oʻquvchilarga oʻqitiladi, maʼno jihatdan nima uchun farq qilinayotgani soʻraladi. Ularning asoslari bir xil, qoʻshimchalari esa turlicha ekanligi aytiladi. Qoida bilan tanishtiriladi.

-chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz soʻz yasovchi qoʻshimchalardir. Baliqchi – baliq (asos), -chi (soʻz yasovchi qoʻshimcha), sozla – soz (asos), la (soʻz yasovchi qoʻshimcha), nurli – nur (asos), -li (soʻz yasovchi qoʻshimcha), gʻallakor – gʻalla (asos), -kor (soʻz yasovchi qoʻshimcha), vatandosh – vatan (asos), -dosh (soʻz yasovchi qoʻshimcha), tuzsiz – tuz (asos), -siz (soʻz yasovchi qoʻshimcha).

Yangi maʼno hosil qiladigan soʻz yasovchi qoʻshimchalar (^) belgi bilan koʻrsatiladi.

165-mashq. Oʻqing. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni koʻchirib yozing. Soʻz yasovchi qoʻshimchalarni belgilang.

Hunarli, yoʻldosh, qoʻldosh, oʻychi, tavakkalchi, javobsiz, eʼtiborsiz.

Oʻquvchilar bilan birga mashq doskada bajariladi.


I. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Terma ish metodi. Oʻquvchilar 3 guruhga boʻlingan. Oʻqituvchi har bir guruhning (partaning) oxiridagi oʻquvchilarga bittadan oq qogʻoz tarqatadi. Qogʻozga soʻz yasovchi qoʻshimchalar ishtirok etgan gaplar yozish kerakligi aytiladi. Oʻquvchi yozib boʻlib, uni sheriklariga uzatib yuboradi. Qaysi qator tez, aniq va koʻp soʻz yasovchi qoʻshimcha qatnashgan gaplar yozsa, shu qator gʻolib deb topiladi.

O‘quvchilar gap tuzgunlariga qadar qoganlar bilan “Kungaboqar” o‘yini o‘ynaladi.

“Kungaboqar” metodi.

So‘zlarning asosi yozilgan plakat doskaga ilinadi. O‘quvchilar kerakli yasovchi qo‘shimchalarni olib gul hosil qiladilar.



Aqliy hujum.

O‘quvchilarga maqollar o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar faqat yasovchi qo‘shimchasi bor so‘zlarni maqollar ichidan aniqlab yozadilar. Faqat maqollar tez o‘qiladi va so‘z yasovchi qo‘shimchani aniqlashga vaqt kam beriladi.

1. Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim.
2. Bemorga shirin so‘z kerak
Aqlsizga - ko‘z
3. Oz so‘zla- soz so‘zla
4. Bolali uy bozor
5. Yaxshi – sharofatli
Yomon – kasofatli
6. Oz so‘zla – soz so‘zla.
7. O‘ychi o‘yini o‘ylaguncha, tavakkalchi ishini bitirar.

Darsni yakunlash:

O‘quvchilar bilimini baholash, faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifa berish: Uyga vazifa berib dars yakunlanadi.

Test savollari

1. **DTS nimani anglatadi?**

- A) Dars tartibi
- B) Davlat talabalari
- C) Davlat ta'lim standarti
- D) Darslik tizimi

2. **XXI asr ko'nikmalaridan biri qaysi?**

- A) Tarixiy xotira
- B) Qat'iylik
- C) Kreativlik
- D) Klassik metod

3. **“Tadqiqotchilik ko'nikmalari” deganda nima tushuniladi?**

- A) Darsni eslab qolish
- B) Mustaqil izlanish va tajriba olib borish
- C) O'qituvchiga savol berish
- D) Asosiy mavzuni yodlash

4. **5E modelining birinchi bosqichi qanday ataladi?**

- A) Evaluate
- B) Explain
- C) Engage
- D) Explore

5. **“Ilm-fan kundalik hayotda” rukni qanday maqsadga xizmat qiladi?**

- A) Fanga qiziqishni kamaytiradi
- B) Fanni nazariyaga bog'laydi
- C) Fanlarni hayotiy muammolarga bog'lashni ko'zlaydi
- D) Tarixiy ma'lumot beradi

6. **Ko'rgazmali vositalar nima uchun kerak?**

- A) O'quvchini yozma ishga yo'naltirish
- B) O'qituvchining yuklamasini kamaytirish
- C) Mavzuni tushunarli qilish
- D) Uyga vazifa berish

7. **Tanqidiy fikrlash bu –**

- A) Bilimni yod olish
- B) Raqamlarni aytish
- C) Ma'lumotni tahlil qilish va baholash
- D) To'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish

8. **Tadqiqot loyihalari orqali qanday ko'nikmalar rivojlanadi?**

- A) Faqat eslab qolish
- B) Tahliliy va ijodiy fikrlash
- C) Takrorlash
- D) Yozuv malakasi

9. **O'quv darsliklarining "Refleksiya" rukni nimaga xizmat qiladi?**

- A) Baholashni avtomatlashtiradi
- B) O'quvchi o'z fikrini bildiradi
- C) Reja tuzadi
- D) Test ishlaydi

10. **AKT qisqartmasining to'liq ochilmasi qanday?**

- A) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
- B) Amaliy kompyuter texnikasi
- C) Asosiy kommunikatsiya tizimi
- D) Akademik ko'nikmalar texnologiyasi

11. **Darsda motivatsiya nima uchun kerak?**

- A) O'qituvchini rag'batlantirish uchun
- B) O'quvchilarda o'rganishga ishtiyoq uyg'otish uchun
- C) Dars muddatini uzaytirish uchun
- D) Savollarni kamaytirish uchun

12. **Darsning texnologik xaritasi bu –**

- A) Elektron jadval
- B) Qisqa testlar to'plami
- C) Darsni bosqichma-bosqich rejalash hujjati
- D) Darslik mazmuni

13. **Fanlararo integratsiya deganda nima tushuniladi?**

- A) Bir fan doirasida dars o‘tkazish
- B) Fanlarni alohida o‘qitish
- C) Turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish
- D) Fanni qisqartirish

14. **Didaktik vositalarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?**

- A) Telefon qo‘ng‘irog‘i
- B) Ko‘rgazmalar, kartalar, grafiklar
- C) Tanaffus
- D) Kitob javoni

15. **Refleksiya bosqichi darsning qaysi qismida o‘tkaziladi?**

- A) Kirishida
- B) O‘rtasida
- C) Yakunida
- D) Uyga vazifada

Glossariy

1. **DTS (Davlat ta'lim standarti)** – ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablari.

2. **Metodik qo'llanma** — bu muayyan mavzu yoki fan bo'yicha bilimlarni o'rgatish yoki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan qo'llanma yoki dastur.

3. **Metodik tavsiya** - o'qitish yoki turli mavzularda bilim berish jarayonida qo'llaniladigan, o'qituvchilar, murabbiylar yoki boshqa mutaxassislar uchun mo'ljallangan ko'rsatma yoki yo'riqnoma.

4. **Ilg'or ish tajribasi** — bu o'qituvchi yoki muassasa tomonidan o'quv-tarbiya jarayonida samarali, innovatsion va yuqori natija bergan metod, texnologiya yoki tashkiliy yondashuvlarning amalda qo'llanilishi bo'lib, boshqa pedagoglar tomonidan ham foydalanishga tavsiya qilinadigan faoliyat.

5. **Kompetensiya** – bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati.

6. **Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish.

7. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

8. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash.

9. **Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'limjarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

10. **Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini

to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash.

11. **Informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillaridan samarali foydalanish.

12. **Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

13. **Innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

14. **Kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

15. **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

16. **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

17. **Ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik.

18. **Kreativ fikrlash** - yangi, g'ayrioddiy va innovatsion g'oyalarni yaratishga qaratilgan fikrlash turidir.

19. **Konstruktiv yondashuv** – yangi bilimlarni avvalgi tajriba asosida mustaqil egallashga asoslangan yondashuv.

20. **Loyihaviy ta'lim**– o'quvchilarni mustaqil loyiha yaratishga yo'naltiradigan ta'lim shakli.

21. **Tanqidiy fikrlash** – ma’lumotni tahlil qilish, baholash va asoslangan qaror chiqarish qobiliyati.
22. **Interfaol metod** – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol muloqotga asoslangan ta’lim shakli.
23. **5E modeli** – Explore, Explain, Elaborate, Engage, Evaluate bosqichlariga asoslangan dars modeli.
24. **Lesson Study** - o‘qituvchilar o‘qitish va o‘rganishni yaxshilash uchun darslarni birgalikda rejalashtiradigan, kuzatadigan va tahlil qiladigan kasbiy rivojlanish yondashuvi.
25. **3C+1E modeli** - o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida yaratuvchanlik va ilmiy izlanishni ta’minlash uchun ishlatiladigan pedagogik yondashuv.
26. **O‘quv kompetensiyalari** – o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan fan va hayotiy ko‘nikmalar majmuasi.
27. **Didaktik vositalar** – ta’limni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi o‘quv materiallari.
28. **Ko‘rgazmali vositalar** – darsda mavzuni tushuntirishda foydalaniladigan vizual materiallar.
29. **Fanlararo integratsiya** – bir nechta fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida o‘qitish.
30. **Tadqiqotchilik ko‘nikmalari** – o‘quvchining mustaqil izlanish olib borish qobiliyati.
31. **Muammoli ta’lim**– muammoni hal qilish orqali bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan metod.
32. **Differensial yondashuv** – o‘quvchilarni individual o‘zlashtirish darajasiga qarab o‘qitish.
33. **AKT** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
34. **Refleksiya** – o‘quvchi va o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayoni.
35. **Amaliy ko‘nikma** – Nazariy bilimni amalda qo‘llay olish qobiliyati.

F.MURADOVA, G.RAXIMOVA, J.ESHKUVATOV

**O‘QITUVCHILARNING USLUBIY
ISHLANMALAR YARATISH
KO‘NIKMALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

8143



Muharrir:	Sh.Muhammedov
Texnik muharrir:	G. Ne'matova
Dizayner:	S.Jiyanov
Sahifalovchi:	SH. Muhiddinov

Litsenziya raqami: №1031822, 03.09.2025 yilda berilgan

Bosishga ruxsat etildi: 16.07.2025. Bichimi: 60/84 1/16

Nashriyot b/t: 6,5. Times New Roman garniturası.

Adadi: 100 dona Buyurtma raqami: 03-10

Olam Print nashriyoti, 100173,
Toshkent shahari, Chilonzor tumani, Al-Xorazmiy ko'chasi 66/7